

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I Y A

B. B. MATLYUBOV

JINOYATLAR MAJMU'I:
KVALIFIKATSIYA QILISH

O‘quv qo‘llanma

Toshkent 2009

Mas'ul muharrir

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor **A. S. Yakubov**

Taqrizchilar:

yuridik fanlar nomzodi **A. G. Zokirova**;
yuridik fanlar nomzodi **I. M. Mirzaraimov**

Matlyubov B. B.

M-34 Jinoyatlar majmui: kvalifikatsiya qilish: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 59 b.

Qo'llanmada jinoyatlarning real va ideal majmuasi bo'lganida ularni kvalifikatsiya qilishning maxsus qoidalari ko'rib chiqiladi. Sud-tergov amaliyotining materiallari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari asosida jinoyatlar majmuining turlarini kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan tipik muammolar tahlil qilinadi hamda qilmishni jinoiy-huquqiy jihatdan to'g'ri baholashni shakllantirishga qaratilgan aniq tavsiyalar ifodalab beriladi.

Huquqshunos olimlar va amaliyot xodimlariga, yuridik ta'lim muassasalarining doktorantlari, adyunktlari va aspirantlari, tinglovchilari, kursantlari, talabalari va magistrantlariga mo'ljallangan.

BBK 67.99(29)8y73

KIRISH

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish davlatning huquqni muhofaza qilish organlari jinoyat qonunini qo'llash jarayonida hal qiladigan markaziy masalalardan biridir. Uning mohiyatini qilmishni jinoyat huquqi nuqtai nazaridan baholash tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasi bilan amalda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish o'rtasidagi farq to'g'ri ko'rsatilgan. Bunda ta'kidlanishicha, «nazariy qoidalarda jinoyatlarning turlarini kvalifikatsiya qilish jinoiy-huquqiy normalarni tavsiflash doirasida hamda ularning sodir etilishiga xos tipik vaziyatlarda umumlashgan holda aks ettiriladi. Jinoyatlarni amaliyotda kvalifikatsiya qilishda esa individual ko'rinishda namoyon bo'ladigan qilmishning istisnosiz barcha aniqlangan va isbotlangan haqiqiy holatlari, ushbu holatlarga xos xususiyatlar va nozik jihatlar inobatga olinadi»¹.

Ushbu qoida jinoyatlar majmuiga ham to'lig'icha taalluqlidir, zero u qat'iyroq huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini belgilab bergani bois to'g'ri kvalifikatsiyaning ahamiyati nazariy darajada ham, amaliy faoliyatda ham kuchayib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi deyarli har bir rahbariy tushuntirishida jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish masalalariga to'xtalishi tasodifiy emas. Bu bilan uning huquqni qo'llash amaliyotidagi va fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy kafolatlarini ta'minlash masalalaridagi o'rni ta'kidlanadi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy darajalari mavjudligi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalarining umumiy, maxsus va yakka turlarga tasniflanishini belgilab berdi. Ayni vaqtda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalari jinoyat qonunining o'zida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy qarorlarida nazarda tutilgan ushbu qoidalarni qo'llashning muayyan yo'llari, shuningdek boshqa sud amaliyotida va jinoyat huquqi nazariyasida ishlab chiqilgan usullar sifatida ifodalanib, «ularning xususiyati shundaki, ular birgalikda jinoyat qonunida ham, jinoyat huqu-

¹ Гаухман Л. Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. — М., 2001. — С. 11.

qi nazariyasining biror mustaqil bo‘limida ham jamlanmagan va yuridik fan ushbu tarmog‘ining ayrim qoidalariga nisbatan ko‘rib chiqiladi»², deya to‘g‘ri ta’kidlanadi.

«Jinoyat huquqining har xil lokal masalalarini hal qilish uchun qilmishlarni sodir etishning alohida tipik hollariga nisbatan»³ kvalifikatsiya qilishda foydalaniladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning juz’iy qoidalari darajasida, ushbu muammoga bag‘ishlangan barcha ishlarda bir qancha jinoyatlar sodir etishni kvalifikatsiya qilish qoidalari o‘zgarmagan holda aniqlanadi, ular qatorida jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilish qoidalari degan kichik guruh ham ajratiladi⁴. Ushbu qo‘llanmada biz aynan mana shu qoidalarga to‘xtalamiz, chunki Jinoyat kodeksi Maxsus qismining jinoiy-huquqiy normalarida nazarda tutilgan alohida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning barcha qoidalarini qamrab olishning iloji ham yo‘q, bu maqsadga muvofiq ham emas. Zero, ular jinoyatlar tarkiblarining aniq turlariga doir tadqiqotlarning bahs mavzuidir.

REAL JINOYATLAR MAJMUI SHAROITIDA JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH

Majmuaga kiruvchi jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish ichki ishlar organlari faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatib, uning statistik hisoblarida o‘z aksini topadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning «Jinoyatlarni hisobga olishning yagona tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasi⁵ nafaqat jinoyatlar majmui haqidagi umumnazariy qoidalarga mos keladi, balki ideal majmuani – yagona jinoyatga, uning real turini – bir qancha jinoyatlar shakliga kiritadi. Bu esa amaldagi jinoyat qonunlariga muvofiq keladi va jinoyat majmualari turlarining huquqiy tabiati haqidagi biz

² Гаухман Л. Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. – М., 2001. – С. 266.

³ O‘sha joyda. – В. 270.

⁴ Qarang: Кудрявцев В. Н. Общая теория квалификации преступлений. – М., 1972. – С. 285–303; Унинг o‘zi. Общая теория квалификации преступлений. – М., 2001. – С. 243–260; Гаухман Л. Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. – М., 2001. – С. 293–305; Куринов Б. А. Научные основы квалификации преступлений. – М., 1984. – С. 169–176; va boshq.

⁵ Bundan keyin – Yo‘riqnama.

qo'llab-quvvatlayotgan qarashning to'g'riligini tasdiqlovchi qo'shimcha, ancha salmoqli dalil hisoblanadi.

Ayni vaqtda, Yo'riqnomaning ijobiy jihatlarini ta'kidlash bilan birga, uning mualliflari, afsuski, mustaqillikkacha bo'lgan davrda amal qilgan jinoyatlarni hisobga olish haqidagi shunga o'xshash hujjatga xos bo'lgan xatolarni takrorlaganliklarini ta'kidlash lozim. Buni biz birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunlari normalarining ham, jinoyat huquqi ta'limotidagi qoidalarining ham inobatga olinmaganligi bilan izohlaymiz.

Masalan, Yo'riqnomaning 5-§ II qismi «a» bandida keltirilgan «real jinoyatlar majmui» tushunchasining ta'rifida shaxs (bir guruh shaxslar) bir qancha har xil jinoyat sodir etgan hollar (real jinoyatlar majmui) ikki va undan ortiq jinoyat sifatida hisobga olinishi belgilangan. Shundan so'ng ushbu badda real jinoyatlar majmuini tashkil qiluvchi jinoyatlar turlarining qo'shilishidan misollar keltiriladi. Masalaga bunday yondashilganida jinoyatlar real jinoyatlar majmuining sun'iy ravishda bo'linishi yuz beradi, chunki jinoyatlarining har xil vaqt oralig'ida sodir etilish hollari alohida toifaga ajratiladi va 5-§ning II qismi «b» bandida nazarda tutiladi. Vaholanki, jinoyatlar sodir etilishining ketma-ketligi (har xil vaqtda sodir etilishi) real jinoyatlar majmuining konstruktiv belgisi hisoblanadi va Yo'riqnomaning 5-§ II qismi «a» bandida taklif etilgan tushunchada to'liq qamrab olinadi. Buning ustiga, bunday tahririy rasmiylashtirishda huquqni qo'llovchida real jinoyatlar majmuini faqat «a» badda nazarda tutilgan hollar tashkil qiladi, degan tasavvur hosil bo'ladi, chunki bu hol u yerda bevosita belgilab qo'yilgan. «B» bandida nazarda tutilgan ikki va undan ortiq har xil jinoyatlarning turli vaqtlarda sodir etilishi hollarining esa yuridik tabiati belgilanmagan, holbuki, ular real jinoyatlar majmuini tashkil qilishi shubhasiz bo'lsa-da, ana shu narsani matnda Yo'riqnomaning 5-§ II qismi «a» bandiga monand ifodalash talab etilardi.

Shu o'rinda Yo'riqnomaning yana bir muhim kamchiligini ta'kidlab o'tish lozim. Unda taklif qilingan ta'rif amaldagi jinoyat qonunida keltirilgan «real jinoyatlar majmui» tushunchasini toraytiradi, chunki uni shaxs (bir guruh shaxslar) tomonidan har xil jinoyatlarning sodir etilishi hollari bilangina cheklab qo'yadi. Shu bilan birga, real jinoyatlar majmuini Yo'riqnomada ikki marta eslatib

o'tilgan, ammo ikkala safar ham yetarlicha aniq bo'lmagan bir turdagi jinoyatlarning majmuasi ham tashkil qiladi.

Birinchi holda 5-§ning II qismidagi «v» bandda belgilanishicha, «shaxs (bir guruh shaxslar)ning har xil vaqtda yoki qisqa vaqt oralig'ida ikki yoki undan ortiq bir xil, ammo takroriy harakatlarni sodir etishi ikki va undan ortiq jinoyat sifatida hisobga olinishi kerak (masalan, bir zina maydonchasidagi ikkita har xil kvartiradan o'g'rilik sodir etish – ikki marotaba o'g'rilik sodir etish deb; jinoyatchi kvartiraga kirib, bir qism buyumlarni o'g'irlagan, muayyan muddat, hattoki qisqa vaqt o'tgach xuddi shu kvartiraga takroran kirib, yana qaysidir buyumlarni o'g'irlagan bo'lsa ham ikki marotaba o'g'rilik sodir etish deb hisobga olinadi), ya'ni sodir etilgan o'g'riliklar soni kvartiraga kirishlar soniga qarab belgilanishi lozim».

Yuqorida keltirilgan bandda kamida ikkita noaniqlik namoyon bo'ladi. Birinchidan, mualliflar umumiy qoidada «bir turdagi jinoyatlar» iborasiga asoslansalar ham, amalda ushbu qoidani namoyish etish uchun keltirgan misollarida aynan o'xshash jinoyatlar haqida so'z yuritadilar, chunki turar joy, omborxona yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy kirish bilan sodir etiladigan hamda Jinoyat kodeksi-ning 169-moddasi 2-qismi «g» bandida nazarda tutilgan ikkita o'g'rilik huquqiy jihatdan aynan bir xil jinoyat hisoblanadi. Ikkinchidan, takroriy jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalariga asoslanilsa, sodir etilgan jinoyatlar soni nechtaligidan qat'i nazar, qonun chiqaruvchi organning ushbu belgini muayyan normada kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutganligi qilmishni faqat bitta modda bo'yicha kvalifikatsiya qilishni talab etadi. Yo'riqnomada keltirilgan misollarda qilmish takroran sodir etilgan o'g'rilik sifatida, ya'ni Jinoyat kodeksi 169-moddasi uchinchi qismining «a» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim, ammo u Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining «g» bandi bo'yicha turar joyga g'ayriqonuniy kirish bilan sodir etilgan ikkita jinoyat sifatida, ikki marta kvalifikatsiya qilinmaydi.

Buning ustiga, bir xonadonda sodir etilgan talon-toraj haqida keltirilgan ikkinchi misolda subyektiv omil inobatga olinmagan, zero, agar qasdning birligi (yagonaligi) aniqlansa, bu hol takroriy emas, balki yagona davomli talon-toraj jinoyati bo'ladi. Bu esa aslo ikkita jinoyat sifatida hisobga olinmasligi kerak.

Shunday qilib, nazarimizda, Yo'riqnomaning tahlil qilingan qoidasi jinoyatchilik holatini sun'iy ravishda bo'rttirishni buyuradi, bu esa, shubhasiz, uni tuzatish hamda moddiy huquq normalariga muvofiq holga keltirishni talab etadi.

Ikkinchi holda jinoyatlarning bir turdaligi 5-§ning I qismi «v» bandida keltirilgan. Uni to'liq keltirish maqsadga muvofiq: «1. Quyidagilar bitta jinoyat sifatida hisobga olinadi (bitta kartochka tuziladi): ... v) har biri kam ahamiyatli bo'lgan, ammo birgalikda jiddiy xavf tug'diradigan bir necha o'xshash (bir turdagi) jinoiy harakatlarni ketma-ket sodir etish yagona jinoyat kabi kvalifikatsiya qilinadi.

Aytaylik, jinoyatchi bir qancha xonadonlarning egalariga kommunal xizmat xodimi sifatida uchrab, kommunal xarajatlarni uchun yig'imlar sifatida har bir turar joy egasidan noqonuniy ravishda uncha ko'p bo'lmagan pul mablag'larini oldi. U holda har biri ancha miqdordan iborat bo'lgan beshta firibgarlikning ketma-ket sodir etilishi beshta jinoyat sifatida inobatga olinadi».

Masalaga bunday yondashuv nafaqat chalkashlik keltirib chiqaradi, balki qonuniy asosga ham ega emas. Birinchidan, O'zbekiston jinoyat qonunlarida «jiddiy xavf» tushunchasi mavjud emas.

Ikkinchidan, Yo'riqnomadagi «kam ahamiyatlilik» termini muayyan «jiddiy xavf» tug'diradigan jinoyatlar majmui sifatida inobatga olinadigan jinoiy harakatlarga nisbatan qanday mazmun anglatishini tushunish muhim. Amaldagi jinoyat qonunida jinoyatlarni tasniflashda «kam ahamiyatli jinoyat» nazarda tutilmagan. Jinoyat kodeksining 15-moddasida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ya'ni jinoyatning barcha zaruriy va yetarli belgilariga ega bo'lgan qilmishlar ijtimoiy xavflilikning eng kam xususiyati va darajasiga egaligi belgilangan. Jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslarni birinchi hisobga olish haqidagi hujjatlarni to'ldirish va taqdim etish jinoyat ishlari va jinoyatlar haqidagi materiallarning harakat tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq, jinoyat ishi JPKning 84-moddasi bo'yicha tugatilgan taqdirda ushbu jinoyatlar hisobda qoldirilishi lozim. Agar Jinoyatlarni yagona hisobga olish to'g'risidagi yo'riqnomaning mualliflari Jinoyat kodeksining 36-moddasiga ko'ra kam ahamiyatliliigi sababli jinoyat hisoblanmaydigan (Yo'riqnomaning 6-§ «b» bandi ham buni tasdiqlaydi) va hisobga olinishi lozim bo'lmagan qilmishlarni nazarda tutgan bo'lsalar, har biri kam aha-

miyatli qilmish bo'lgan va ketma-ket sodir etilgan bir qancha firibgarlikni birlashtirib, yagona jinoyat sifatida hisobga olish mumkinligi tushunarsiz bo'ladi.

Shunday qilib, bayon etilgan qoidalar bir turdagi jinoyatlarning qo'shilishi tufayli hosil bo'ladigan real jinoyatlar majmui turini ifodalamaydi. Bu esa, shubhasiz, tuzatish kiritishni talab qiladi.

Umuman, Yo'riqnoma bo'yicha shuni ta'kidlash lozimki, afsuski, u kamchiliklardan xoli emas. Kamchiliklar esa bir qancha jinoyatlar institutini baholash va hisobga olish bilangina cheklanib qolmaydi. Bu esa jinoyatlarni hisobga olishda suiiste'molliklarga yo'l qo'yish imkonini beradi. Biroq muhimi shundaki, uning asosida olingan ma'lumotlar jinoyatchilikning haqiqiy holatini to'liq aks ettirmaydi, buning ustiga, umumiy jinoyatchilik dinamikasini ko'paytirib yuboradi. Binobarin, Jinoyatlarni hisobga olishning yagona tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning amaldagi jinoyat qonunlariga muvofiqlashtirish zarur. Amaldagi jinoyat qonunlari esa, birinchi navbatda, qaysi xatti-harakatni jinoiy xatti-harakatga kiritish lozim, qaysinisini esa kiritib bo'lmaydi, qaysi xulqni bir qancha jinoyat sodir etish deb, qaysi birini esa yagona jinoyat deb baholash lozimligini aniqlash uchun huquqiy asosni tashkil etadi.

Yuridik adabiyotlarda real jinoyatlar majmuini kvalifikatsiya qilish masalalariga oid bahsli holatlar mavjud, jumladan, takroriy jinoyatlardan loaqal bittasi tugallanmagan yoxud ishtirokchilikda sodir etilgan taqdirda ularni jinoyatlar majmui deb baholash mumkin yoki mumkin emasligi xususida keskin bahs-munozaralar bormoqda.

Jinoyatlardan biri tugallanmagan yoxud ishtirokchilikda sodir etilgan hollarni real jinoyatlar majmui qoidalariga ko'ra kvalifikatsiya qilish mumkinligi haqidagi nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlovchi mualliflar bu Jinoyat kodeksi moddasining qismida takroriylik ko'rsatilgan taqdirda yuz berishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bunday qarash YU. A. Krasikov, V. P. Malkov, F. R. Ragimovning asarlarida o'z ifodasini topgan⁶. Bir qator olimlar hattoki «takroriylik-maj-

⁶ Qarang: *Красиков Ю. А.* Множественность преступлений. – М., 1988. – С. 46; *Малков В. П.* Совокупность преступлений. – Казань, 1974. – С. 200; *Ражимов Ф. Р.* Совокупность преступлений, ее наказуемость и место в системе множественности преступлений: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1982. – С. 70.

mua» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritishga uringanlar⁷. Turli respublikalarda sodir etilgan o'xshash jinoyatlarning takroriyligi hollari ham tahlil qilingan bo'lib⁸, SSSR parchalanishi sababli bu tahlil amaliy ahamiyatini yo'qotdi.

Bizning fikrimizcha, mazkur mualliflar keltirgan dalillar unchalik ishonchli emas. Birinchidan, Jinoyat kodeksining bitta moddasi yoki moddasining bir qismida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq o'xshash jinoyatlarning sodir etilishi jinoyatlar majmui hisoblanmaydi. Bu esa Jinoyat kodeksining 33-moddasida yoxud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi 1-sonli 2006-yil 3-fevral qarorida bayon etilgan jinoyatlar majmui tushunchalaridan ham⁹, yuqorida keltirilgan mualliflarning ta'riflaridan ham kelib chiqadi.

Ikkinchidan, o'xshash jinoyatlardan biri ishtirokchilikda yoki tugallanmagan holda sodir etilganida real jinoyatlar majmui haqidagi qoidalar bo'yicha kvalifikatsiya qilishning maqsadga muvofiqligiga doir dalillar asosli emas, chunki bu hol qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini jiddiy ravishda o'zgartiradi. Buning uchun huquqiy asoslar mavjud emas. Masalan, Jinoyat kodeksi 25-moddasining uchinchi qismida «jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd qilish uchun javobgarlik ushbu Kodeksning Maxsus qismidagi xuddi o'sha tugallangan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bo'yicha kelib chiqadi» deb belgilangan, Jinoyat kodeksi 58-moddasining birinchi qismiga muvofiq esa sud jazo tayinlashning umumiy asoslariga tayanib, ayni vaqtda sodir etilgan jinoyatning og'irligini, jinoiy rejaning amalga oshirilish darajasi va jinoyat tugamay qolishining sabablarini ham inobatga oladi.

Ishtirokchilik xususida ham shuni aytish mumkin, ya'ni aybdor shaxsning harakatlari qanday kvalifikatsiya qilinishidan qat'i nazar, u bajargan vazifani inobatga olgan holda u sodir etgan qilmish ayni bir jinoyatga taalluqli bo'ladi (JK 30-m. 1-q.).

⁷ Qarang: *Зелинский А. Ф.* Квалификация повторных преступлений. – Волгоград, 1976. – С. 39.

⁸ Qarang: *Бажанов М. И.* Назначение наказания по совокупности преступлений и совокупности приговоров. – Харьков, 1977. – С. 5.

⁹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 225–229.

Balki Jinoyat kodeksi 25 va 30-moddalarining qo'llanishi jinoyatlarning kvalifikatsiya qilinishini o'zgartira olar? Yo'q. Jinoyatning kvalifikatsiya qilingan tarkibi uchun konstitutiv xususiyatga ega bo'lgan va asosiy tarkib belgilarida ifodalanganiga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligidan dalolat beradigan aybni og'irlashtiruvchi belgilargina huquqiy bahoni o'zgartirishi mumkin¹⁰. Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida qonun chiqaruvchi organ Jinoyat kodeksining 25 va 27-moddalarida bayon etilgan belgilarning muhimligini inobatga olib, ularni dispozitsiyaga kiritadi va ular kvalifikatsiya qiluvchi belgilar ahamiyatiga ega bo'ladi. Qolgan hollarda Jinoyat kodeksi 25 va 27-moddalarining belgilari, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar singari (JK 55, 56-moddalari), jazo tayinlashga ta'sir etadi, ya'ni uni (jazoni) faqat sanksiya doirasida oshiradi yoki kamaytiradi.

O'xshash jinoyatlarning takroriyligi, o'zining kvalifikasion ifodasiga ko'ra, jinoyatlarning real majmuini eslatadi. Ammo bundan ortiq emas. Yuqorida aytganimizdek, bir qancha jinoyat sodir etish shakli sifatidagi takroriylikka hukm etilgunicha ikki yoki undan ortiq o'xshash jinoyatni sodir etgani uchun shaxs jinoiy javobgarlikka hamda Jinoyat kodeksining ikkala jinoyatni bir vaqtda ko'ruvchi moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlik va jazoga tortiladi, degan faktgina aloqador bo'lib, oddiy va og'irlashtiruvchi (takroriylilik belgisi bo'yicha) tarkiblarda nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bunga kirmaydi. Ikkinchi jinoyatning takroriylilik belgisi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi bir qancha jinoyatlar sodir etishning boshqa shakllariga, ya'ni real jinoyatlar majmuiga (agar birinchisi bir turdagi jinoyat yoki retsdiv bo'lsa), yoxud retsdivga (shaxs avvalgi jinoyati uchun hukm qilinganidan so'ng asosiy tarkibda nazarda tutilgan jinoyatni yana sodir etsa) kiradi.

Shunday qilib, biz real jinoyatlar majmuini aynan o'xshash jinoyatlarning takroriyligi bilan qo'shib bo'lmaydi deb hisoblovchi

¹⁰ Qarang: *Кругликов Л. Л., Савинов В. Н.* Квалифицирующие обстоятельства: понятие, виды, влияние на квалификацию преступлений. – Ярославль, 1989. – С. 8.

M. I. Blum, K. U. Umarova, Y. Frolov kabi olimlarning fikrlari to'g'ri deb hisoblaymiz¹¹.

Jinoyat ushbu holda Jinoyat kodeksi moddasining qilmishning takroriyligini nazarda tutuvchi qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilindi. Jinoiy faoliyat epizodlaridan biriga Jinoyat kodeksining 25 va 27-moddalarini, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llash sudning huquqi yoki majburiyatidir.

Xulosamizning to'g'riligini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ushbu masaladagi fikri ham tasdiqlaydi. U, masalan, o'zining «Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanilishi haqida»gi 6-sonli 2003-yil 6-iyun qarorining 12-bandida quyidagilarni ko'rsatgan: «Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan qilmishni ikki va undan ortiq marotaba alohida qasd bilan sodir etgan aybdorning harakati soliq to'lashdan takroran bo'yin tovlash sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda shaxs jinoyatni bajaruvchi yoki uning ishtirokchisi ekanligining, muqaddam sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat yoki jinoyatga suiqasd bo'lganligining ahamiyati yo'q. Shaxsning harakatlarida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan takroran bo'yin tovlash belgisi mavjudligi masalasini hal etishda Jinoyat kodeksining 32-moddasida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqish lozim»¹².

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan qonun chiqaruvchi bir qator moddalarda «takroriylik» va «xavfli retsidiv» bilan bir qatorda «ilgari jinoyat sodir etgan» iborasidan ham foydalanganiga e'tibor berish lozim. Ushbu ibora qonunda bir qator jinoyatlarning aybni og'irlashtiruvchi belgilarini aniqlashda ishlatilgan. Bunda, hozirgi adabiyotlarda ta'riflanishicha, aslida bu ibora takroriylik va xavfli retsidivning maxsus hollarini qamrab oladi, ya'ni ular qonun chiqaruvchi organning irodasi bilan nafaqat aynan o'xshash, balki

¹¹ Qarang: *Блум М. И.* Понятие и признаки совокупности преступлений // Вопросы уголовного права и процесса. – Рига, 1969. – С. 23; *Умарова К. У.* Совокупность преступлений: правовые и социальные аспекты квалификации и наказания: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1984. – С. 28; *Фролов Е., Сухарев Е., Горбуза А.* Совокупность и повторность преступлений, посягающих на один объект // Сов. юстиция. – 1979. – № 4. – С. 6.

¹² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 135.

muayyan moddalarda maxsus nazarda tutilgan bir turdagi yoki har xil jinoyatlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi¹³.

Bunday ifodani biz quyidagi moddalarda ko‘ramiz:

Jinoyat kodeksi 104-m. 3-q. «b» bandi (takroran, xavfli retsidi-vist yoki ilgari ushbu Kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan tarzda qasddan odam o‘ldirgan shaxs tomonidan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish);

Jinoyat kodeksi 105-m. 2-q. «k» bandi (takroran, xavfli retsidi-vist yoki ilgari ushbu Kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatini sodir etgan yoxud ushbu Kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan shaxs tomonidan qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish);

Jinoyat kodeksi 118-m. 2-q. «b» bandi (takroran yoki xavfli retsidi-vist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 119-moddasi-da nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan nomusga tegish);

Jinoyat kodeksi 119-m. 2-q. «b» bandi (takroran, xavfli retsidi-vist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 118-moddasida na-zarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan jinsiy ehtiyojni zo‘rlilik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish);

Jinoyat kodeksi 127-m. 3-q. «a» bandi (ilgari giyovandlik vosi-talari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog‘liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomo-nidan voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish);

Jinoyat kodeksi 128-m. 2-q. «b» bandi (ilgari ushbu Kodeksning 118 yoki 119-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish);

Jinoyat kodeksi 131-m. 2-q. «b» bandi (takroran, xavfli retsidi-vist yoki ushbu Kodeksning 135 yoki 137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni ilgari sodir etgan shaxs tomonidan sodir qilin-gan fohishaxona saqlash yoki qo‘shmachilik qilish);

¹³ Qarang: Якубов А. С., Кабулов Р. Новое в уголовном законодательстве. – Т., 1995. – С. 23, 37–38; Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳ. – Т., 1997. – Б. 56–64.

Jinoyat kodeksi 140-m. 3-q. «b» bandi (xavfli retsividist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilgan haqorat qilish);

Jinoyat kodeksi 164-m. 3-q. «a» bandi (takroran, xavfli retsividist yoki ilgari ushbu Kodeksning 242-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan bosqinchilik qilish);

Jinoyat kodeksi 189-m. 2-q. «a» bandi (xavfli retsividist yoki ilgari ushbu Kodeksning 188 yoki 190-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish);

Jinoyat kodeksi 210-m. 2-q. «a» bandi (takroran, xavfli retsividist yoki ilgari ushbu Kodeksning 211 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan pora olish);

Jinoyat kodeksi 211-m. 2-q. «a» bandi (takroran, xavfli retsividist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan pora berish);

Jinoyat kodeksi 212-m. 2-q. «a» bandi (takroran, xavfli retsividist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan pora olish-berishda vositachilik qilish);

Jinoyat kodeksi 213-m. 3-q. «a» bandi (takroran, xavfli retsividist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210, 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan xizmatchini pora evaziga og'dirish);

Jinoyat kodeksi 270-m. 2-q. «a» bandi, Jinoyat kodeksi 271-m. 2-q. «a» bandi, Jinoyat kodeksi 273-m. 3-q. «a» bandi, Jinoyat kodeksi 274-m. 2-q. «a» bandi, Jinoyat kodeksi 276-m. 2-q. «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatlarni (ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan) sodir etish.

Shubhasiz, bunday qonunchilik yechimi huquqni qo'llovchiga jinoiy javobgarlik va jazoni tabaqalashtirish hamda individuallashtirishning mukammalroq mexanizmini yaratib berishga intilish bilan bog'liq. Ammo bunday yondashuvda, nazarimizda, insonparvarlik (JK 7-m.) va odillik (JK 8-m.) prinsiplarining mazmunini tashkil qiluvchi qonun normalari muayyan darajada inobatga olinmaydi. Jinoyat kodeksi 7-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, jinoyat

sodir etgan shaxsga uning tuzalishi va yangi jinoyatlar sodir etishi-ning oldini olish uchun zarur va yetarli jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishi lozim. Jinoyat kodeksi 8-moddasi-ning ikkinchi qismida yozilishicha, «hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas».

Bizningcha, ushbu rahbariy g'oyalar, asosiy boshlang'ich qoidalar takroriylik va jinoyatlar majmuini aniqlash hollarida buzilmoqda.

Qoida buzilishi, nazarimizda, shundan iboratki, shaxs, uning qilmishlarida «ilgari boshqa bir xil yoki har xil jinoyatni sodir etganlik» kvalifikatsiya qiluvchi (aybni og'irlashtiruvchi) belgisi aniqlanganida, ayni bir qilmishi uchun ikki marta javobgarlikka tortiladi, chunki Jinoyat kodeksi 32-moddasining ko'rsatmalariga muvofiq, bunday qilmishlar takroriy deb baholanadi, Jinoyat kodeksi 33-moddasining talablariga ko'ra esa Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bo'yicha mustaqil baho olishi, ya'ni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak. Ko'rgazmali bo'lishi uchun bitta misol keltiramiz.

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi B.ni ayblash bo'yicha ishni ko'rib chiqqan¹⁴. Biz tahlil qilayotgan muammoga taalluqli bo'lmagan ortiqcha jihatlarni olib tashlab aytamizki, mahkum B.ga uchta epizod (voqea) bo'yicha ayb e'lon qilingan. 2002-yil 21-may kuni B. birinchi jinoyatni sodir etgan, ya'ni ikki nafar yosh qizchani – 1992-yil tug'ilgan D. va 1993-yil tug'ilgan YA.ni – aldov yo'li bilan kimsasiz joyga olib kelib, qo'rqitib va D.ning chorasiz ahvolidan foydalanib, unga yechinishni buyurgan. So'ngra uni yerga yuzi bilan yotqizib, oyoqlari orasida o'zining jinsiy ehtiyojini qondirgan. Shundan so'ng jinoyat sodir etgan joydan qochib yashirgan. Ushbu epizodni sud Jinoyat kodeksi 119-moddasining to'rtinchi qismi bo'yicha aybdorga jabrlanuvchining 14 yoshga to'lmaganligi ma'lum bo'lgani holda, uning chorasiz holdaligidan foydalanib o'z tabiiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda zo'rlik ishlatib qondirish sifatida kvalifikatsiya qildi. Ushbu epizod bo'yicha sud B.ga 17 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

Ikkinchi jinoyatni B. 2002-yil 7-avgust kuni 1990-yil tug'ilgan G.ga nisbatan sodir etdi. U G.ni ham aldov yo'li bilan bug'xona (ko-

¹⁴ Qarang: Тошкент шаҳар судининг 2002 йилги архиви. Иш № 1–742 / 2002.

telniy) ichiga olib kirdi, ikki qo'lini metall quvurga bog'lab, baqirmasligi uchun og'zini berkitib (bog'lab), agar baqirish va qarshilik ko'rsatishda davom etsa, metall armatura bilan boshiga urib o'ldirish bilan qo'rqitib, uning ichkiyimini yechib olgan va jinsiy munosabatga kirishgan, ya'ni nomusiga tekkan. Sud sudlanuvchi B.ning harakatlarini ayblovning ushbu epizodi bo'yicha tergov organlarining Jinoyat kodeksi 118-moddasi ikkinchi qismining «b» va «g» bandlari bo'yicha to'g'ri kvalifikatsiya qilinganligi masalasini muhokama qilib, asosli ravishda, Jinoyat kodeksi 33-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan qoidaga asoslanib, qilmishni faqat Jinoyat kodeksining 118-moddasi to'rtinchi qismi bo'yicha, ya'ni 14 yoshga to'lmagani aybdorga ma'lum bo'lgan shaxsni qo'rqitish orqali takroran sodir etilgan jabrlanuvchining chorasiz holatidan foydalanib va unga nisbatan zo'rlik ishlatib jinsiy aloqaga kirishish deb kvalifikatsiya qilgan. Ushbu jinoyat uchun sud B.ga 18 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlagan.

Uchinchi jinoyatni B. 2002-yil 18-avgust kuni 1994-yil tug'ilgan R.ga nisbatan sodir etgan. Bu qizchani u bolalar bog'chasi devoridan oshib o'tayotganida ushlab olgan va militsiyaga olib borish hamda jarima solish bilan qo'rqitib, o'rta maktabning bo'sh hududiga olib borgan, u yerda bo'g'ib o'ldirish va do'pposlash bilan qo'rqitib, qarshilik ko'rsatayotgan R.ni yechintirishga va zo'rlik ishlatib jinsiy aloqa qilishga uringan. Biroq qizaloq R. qattiq baqirib va yordamga chaqirib, faol qarshilik ko'rsatgan, B.ning qo'lidan chiqib qochib ketgan. B. esa jinoiy maqsadiga erisha olmay, jinoyat sodir etgan joyidan qochib yashiringan. Sud B.ning ushbu voqea bo'yicha harakatlarini Jinoyat kodeksining 25-moddasi, 118-moddasining ikkinchi qismi «b» bandi va to'rtinchi qismi bo'yicha to'g'ri kvalifikatsiya qilingani haqidagi masalani muhokama qilib, Jinoyat kodeksi 33-moddasining ikkinchi qismi qoidalariga tayanib, qilmishni Jinoyat kodeksining 25-moddasi va 118-moddasining to'rtinchi qismi bo'yicha 14 yoshga to'lmaganligi aybdorga ma'lum bo'lgan shaxsni zo'rqlashga takroran urinish deb baholab, 16 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlagan.

B.ga Jinoyat kodeksining 59-moddasiga asoslanib jazolarni qisman qo'shish orqali oxirgi jazo chorasi 19 yil ozodlikdan mahrum qilish tarzida belgilangan.

Shu o'rinda nafaqat bir xildagi, balki o'xshash va har xil jinoyatlarning ham takroriylik hollariga kirishi mumkinligi xususida o'z fikrimizni bildirishdan avval, ikki va undan ortiq jinoyatlarning biri tugallangan, boshqasi yoki boshqalari tayyorgarlik yoki suiqasd bosqichida to'xtatilgan ikki va undan ortiq jinoyatni huquqiy baholash masalasida huquqni qo'llovchi organlar yo'l qo'yadigan odatiy xatoga e'tibor qaratamiz.

Biz keltirgan ko'rgazmali misolda bu xato ancha yorqin namoyon bo'lgan, zero B.ga ayb qilib qo'yilayotgan uchinchi epizod mustaqil huquqiy baholashni talab qilmagan, chunki Jinoyat kodeksi 32-moddasining birinchi qismiga muvofiq, «tamom bo'lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo'lgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd etish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi». Bunga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi ham e'tibor qaratgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi 1-sonli qarorining 49-bandida yozilishicha, «Jinoyat kodeksi 59-moddasida belgilangan jinoyatlar majmui bo'yicha jazo tayinlash qoidalari quyidagi hollarda qo'llaniladi: ... shaxs bir necha aynan o'xshash qilmishni sodir etgan bo'lib, ulardan ayrimlari tugallangan jinoyat, boshqalari esa – jinoyatga tayyorgarlik, suiqasd tariqasida kvalifikatsiya qilinganda yoki ayrimlari mustaqil, boshqalari esa ishtirokchilikda sodir etilganda...

Shaxs Jinoyat kodeksi Maxsus qismi aynan bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan o'xshash qilmishni sodir etganlikda aybdor deb topilganda jazo shu moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha tayinlanadi»¹⁵. Binobarin, B.ning R.ni zo'rlashga suiqasd qilish haqidagi uchinchi epizodni mustaqil tarzda huquqiy baholash ortiqcha, chunki u «takroriylik» belgisi ayb qilib qo'yilganida bir marta inobatga olib bo'lingan.

Amaldagi jinoyat qonuni nuqtai nazardan, B.ning harakatlarini dastlabki ikki epizod bo'yicha kvalifikatsiya qilish asoslidir. Ammo bu adolatlimi? Nazarimizda, adolatli emas, zero kichik yoshdagi jabrlanuvchi D.ga nisbatan jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayrita-

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 238–239.

biiy usulda qondirishda ifodalangan birinchi epizod ikki marotaba huquqiy baholangan, ya'ni Jinoyat kodeksining 119-moddasi hamda 118-moddaning ikkinchi qismi «b» bandi bo'yicha baholangan. Shunday qilib, biz tahlil qilayotgan qonunchilik yechimi Jinoyat kodeksi 8-moddasining ikkinchi qismida belgilangan «non bis in idem»¹⁶ prinsipiga zid kelgan.

Ta'kidlash lozimki, ushbu adolatsizlikka, albatta biroz boshqacharoq mazmunda, XX asrning 90-yillaridayoq professor E. X. Narbo'tayev e'tibor qaratgan edi¹⁷. U qonundan hozirgi zamon qonunchiligidagi «xavfli retsidiv» ta'rifiga mos keluvchi «jinoyatning takroriylikni keng talqin qilish ehtimoliligiga yo'l qo'ymaslik uchun «takroriylik tushunchasining o'zini toraytirish»ni tavsiya etgan. O'ylaymizki, Jinoyat kodeksi 32-moddasining birinchi qismida ilk bor ifodalangan «takroriylik» tushunchasi E. X. Narbo'tayev prognoz sifatida ilgari surgan talablarga javob beradi. Biroq, afsuski, amaldagi qonunchilik takroriylik va jinoyatlar majmuining qo'shilishi hollarini yo'q qilish muammosini hal qilmadi, vaholanki ushbu hollarda kvalifikatsiya qilish darajasidayoq (jazo tayinlash bosqichi haqida gapirmasa ham bo'ladi) qilmish ikki marotaba huquqiy baholandi.

Bunday ziddiyatni yo'q qilish uchun bir xil va har xil jinoyatlarni takroriy jinoyat deb e'tirof etishdan va xavfli retsidiv sifatida tan olishdan voz kechishni taklif qilamiz. Takroriylik ham, xavfli retsidiv ham aynan bir xil jinoyatlarning har xil vaqtda sodir etilishi hollaridagina qayd etilishi mumkin va kerak. Ushbu taklifni yuqorida keltirilgan jinoyatlar ro'yxatidan «ilgari jinoyat sodir etgan...» iborasiga asoslangan kvalifikatsiya qiluvchi belgilarni chiqarib tashlash orqali qonunchilik darajasida bimalol amalga oshirsa bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarda, ayniqsa hokimiyatning mustaqil tarmog'i – sud tarmog'i bo'lmish sud tizimining mutlaqo yangi huquqiy maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan yangi mustaqil davlatlar shakllanayotgan davrda, Oliy sud Plenumi tushuntirishlari-

¹⁶ non bis in idem – айнаи бир айб учун икки марта. Qarang: Латинская юридическая терминология / Сост. проф. Б. С. Никифоров. – М., 1979. – С. 175.

¹⁷ Qarang: Нарбутаев Э. Х. Борьба с преступностью: закон и практика. – Т., 1991. – С. 82–85.

ning huquqiy ahamiyati haqidagi masala qizg'in muhokama qilinmoqda¹⁸. Bu muhokama, shubhasiz, mustaqil ilmiy tadqiqot o'tkazishni talab etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi haqiqiy jinoyatlar majmui mavjud bo'lganida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolariga doimo juda katta e'tibor qaratgani va qaratib kelayotgani hamda amaldagi Plenum qarorlarining ko'plab qoidalari ularni hal etishga bag'ishlanganidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari qanday huquqiy ahamiyatga egaligi, ularning quyi bo'g'indagi sudlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari uchun majburiylik darajasi masalasiga qisqacha to'xtalamiz. Ushbu masaladagi qarorimizning asosini ta'limotlardagi (doktrinal) kategoriyalar emas, balki qonun talablari tashkil qiladi. Masalan, Konstitutsiyaning 110-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, Oliy sud qabul qiladigan hujjatlar uzil-kesil hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi majburiy hisoblanadi. Sud hokimiyati hujjatlarining majburiyligi Konstitutsiyaning 114-moddasida ham belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra ushbu hujjatlar davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar O'zbekiston Respublikasining ««Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2000-yil 14-dekabr qonunida amalga oshirildi va rivojlantirildi. Unga binoan, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ushbu qonunning yangi tahririni tasdiqladi¹⁹. Ushbu qonunning 17-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, Oliy sud Plenumining vakolatlariga sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqish va qonunlarni qo'llash masalalari yuzasidan tushuntirishlar berish kiradi, 13-moddaning to'rtinchi qismiga ko'ra esa, Oliy sud vakolatlariga sudlarning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlarini bajarishlarini na-

¹⁸ Qarang, masalan: *Парог А. И.* Правовое значение разъяснений Пленума Верховного суда РФ // Государство и право. – 2001. – № 2. – С. 52–57; *Парог А. И., Грачева Ю. В.* Понятие, основание, признаки и значение судебного усмотрения в уголовном праве // Государство и право. – 2001. – № 11. – С. 90–98; va boshq.

¹⁹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 1–2. – 10-модда.

zorat qilish kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi Qonunning 21-moddasiga binoan aniq sud ishlarini hal etish bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalarni muhokama qilish natijasida qonunlarni qo‘llash masalalarini tushuntiradigan qarorlar qabul qiladi. Ushbu qarorlar nafaqat sudlar uchun, balki boshqa organlar, korxona, muassasa va tashkilotlar hamda mazkur tushuntirishlarda so‘z yuritilgan qonunlarni qo‘llovchi mansabdor shaxslar uchun bajarilishi majburiydir.

Bayon etilgan fikrlar Oliy sud Plenumi tushuntirishlarining tavsiyaviy xususiyati haqidagi doktrinal yondashuvlardan birini mutlaqo inkor etadi va quyidagi aniq xulosaga olib keladi: O‘zbekiston Respublikasining hududida Oliy sud Plenumining tushuntirishlari yuridik tabiatiga ko‘ra huquqni qo‘llovchi barcha subyektlar uchun majburiy hisoblanadi va rahbariy xususiyatga ega.

Ushbu xulosa tadqiqotimiz nuqtai nazaridan juda muhim, zero Oliy sud Plenumining real jinoyatlar majmuini kvalifikatsiya qilish masalalari borasidagi rahbariy tushuntirishlari huquqiy etalon bo‘lib xizmat qiladi hamda kvalifikatsiya qilishning maxsus qoidasi maqomiga ega. Ushbu qoidalar qonunni barcha huquqni qo‘llovchilar jinoyat ishlarini tergov qilish hamda ko‘rib chiqishning barcha darajalari va bosqichlarida ijtimoiy xavfli qilmishlarning sodir etilishi bilan bog‘liq ayrim tipik hollarga nisbatan bir xilda qo‘llashlariga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Oliy sud Plenumining real jinoyatlar majmui sharoitida kvalifikatsiya qilish masalalariga doir rahbariy tushuntirishlari barcha huquqni qo‘llovchilar uchun majburiyligi tufayli qilmishni huquqiy baholash borasidagi siyosatni shakllantiradi va amalda real jinoyatlar majmui bo‘lganida kvalifikatsiya qilishning maxsus qoidalari uchun huquqiy asos bo‘ladi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining real jinoyatlar majmuiga doir jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalari ifodalangan amaldagi qarorlarining qoidalarini tahlil qilish lozim. Zero, afsuski, mavjud tavsiyalarning hammasi ham kvalifikatsiya qilishning umumiy nazariyasiga to‘liq mos kelmaydi, bu esa asossiz huquqni qo‘llash amaliyoti shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Ularni tahlil qilish ulardagi qoidalarni ikki guruhga ajratib tasniflashga imkon beradi. Kvalifikatsiya qilishning xususiy qoidalari belgilangan ushbu guruhlar: 1) real jinoyatlar majmui sharoitida;

2) real jinoyatlar majmuiga aloqador bo'lmagan sharoitda kvalifikatsiya qilishdir.

1. Real jinoyatlar majmui bo'lganida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. Ushbu guruhni haqiqatan ham real jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi hollarni kvalifikatsiya qilishni ifodalaydigan qoidalar tashkil qiladi. Mazkur guruhda, doktrinal nuqtai nazardan, Oliy sud Plenumi qarorlarining quyidagi tipik hollar belgilangan uchta kichik guruhini ajratishimiz mumkin: a) klassik real jinoyatlar majmui; b) sodir etilish xususiyatiga ko'ra faqat real jinoyatlar majmui tashkil etishi mumkin bo'lgan jinoyatlar; v) loaqal bitta jinoyat vaqtda muayyan davomiylikka ega bo'lgan real jinoyatlar majmui.

«А» kichik guruhiga biz Oliy sud Plenumining faqat real jinoyatlar majmui sharoitida sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishlarni kvalifikatsiya qilish tartibiga doir tavsiyalar berilgan qarorlarini kiritdik (bu hol alohida ta'kidlangan yoxud e'tibor uning asosiy belgilariga qaratilgan). Bu esa ushbu kichik guruhni klassik real jinoyatlar majmui hollarini kvalifikatsiya qilish qoidasi sifatida ta'riflashga imkon berdi.

Buning misoli sifatida Oliy sud Plenumining «Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 2000-yil 15-sentabr qarorini keltirish lozim. Uning 3.3-bandida mazmunidan kelib chiqib, guruh tarkibida va yolg'iz holda sodir etilgan nizomlarga zid harakatlar epizodlari *real jinoyatlar majmui* sifatida mustaqil yuridik baholanishi lozim²⁰.

Ayrim hollarda real jinoyatlar majmuining alohida belgilari ko'pincha – jinoyatlarning bir turdaligi yoki har xilligi yoxud ularning sodir etilishi ketma-ketligi (har xil vaqtda sodir etilishi) ko'rsatiladi. Masalan, Oliy sud Plenumining «Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida»gi 8-sonli 2000-yil 28-aprel qarorining 11-bandida shunday deyilgan: «Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxonadan yashirib yoxud bojxona hujjatlari va vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalانب, ko'p miqdorda, juda ko'p miqdorda, xizmat lavozimidan foyda-

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 41–42.

langan holda, chegarani buzib o'tish yo'li bilan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab valuta qimmatliklarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, keyinchalik ular bilan O'zbekiston Respublikasi hududida bitimlar (sotish, almashtirish) amalga oshirilganda bojxona qonunlarini buzish va valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda o'tkazish sifatida baholanishi va shu jinoyatlar majmui bo'yicha tavsiflanishi lozim»²¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 9-sonli 2002-yil 14-iyun qarorining 10-bandida tushuntirilishicha, «bezorilik harakatlari tugaganidan *keyin* (ta'kid bizniki. – M. B.), shu jumladan aybdor ushlangandan so'ng ko'rsatilgan qarshilik, bezorilik jinoyatining alomatlariga xos holat deb hisoblanmasligi va bunday holda qilmish jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim»²².

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toraj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 6-sonli 1999-yil 30-aprel qarorining 2-bandida yozilganidek, «zo'rlik ishlatish harakatlari aybdor tomonidan o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishi tugagandan *keyin* (ta'kid bizniki. – M. B.) qo'lga tushishdan qutulish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, bunday harakat talonchilik yoki bosqinchilik deb qaralmaydi. Zo'rlik ishlatishning xususiyati va kelib chiqqan oqibatlariga qarab qilmishni o'g'rilik deb, boshqa jinoyatlarning belgilari bo'lganda jinoyatlar majmui bo'yicha tavsiflash lozim»²³.

Oliy sud Plenumining mazkur tushuntirishlarida real jinoyatlar majmuini kvalifikatsiya qilishning eng klassik hollari keltirilgan bo'lib, shu bois huquqni qo'llash chog'ida hech bir qiyinchilik tug'dirmasligi, shuningdek qandaydir boshqacha doktrinal talqinlarni yuzaga keltirmasligi kerak. Ammo shunga qaramay ular mavjud bo'lib, yuridik adabiyotlarda rahbariy tushuntirishlarning ancha

²¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 21.

²² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 113.

²³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 221.

«erkin» talqinlariga yo‘l qo‘yilmoqda.

Masalan, sobiq SSSR Oliy sudi Plenumining «Avtotransport jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 11-sonli 1970-yil 6-oktabr qarorining, jumladan uning turli vaqtlarda sodir etilgan va oqibatlari yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan bir qancha oqibatlarga olib kelgan jinoyatlar turli vaqtlarda sodir etilgan hollarda, har xil oqibatlarga olib kelgan va ushbu moddaning bir qancha qismlarida nazarda tutilgan mazkur jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerakligi aytilgan 8-bandiga asoslanib, prof. B. A. Kurinov o‘zi loyihalashtirgan misolga asoslanuvchi xulosasini chiqargan. Unga ko‘ra, «agar aybdor harakat qoidalarini jinoiy ravishda buzib fuqaroning badaniga yengil shikast yetkazgan, so‘ngra voqea joyidan yashirinib, yo‘l harakati qoidasini takroran buzgan va odam bosgan bo‘lsa, uning qilmishi yagona jinoyat sifatida baholanmog‘i va jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak... Ushbu holda yo‘l harakati qoidalarini ikki marta bunday jinoiy buzishning nomustaqil xususiyatini belgilagan holatni turli xil zararli oqibatlar yetkazilishining bir vaqtda sodir etilish xususiyati tashkil etadi»²⁴.

O‘ylaymizki, ushbu xulosa xatodir. Bir vaqtdalik shaxs harakat xavfsizligi qoidalarini buzishi natijasida jabrlanuvchilardan birining badaniga shikast yetkazgan, boshqasini halok etgan taqdirda mavjud bo‘ladi. Bu yagona jinoyat sodir etilganidan dalolat beradi va, Jinoyat kodeksi 266-moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan oqibatlar mavjudligiga qaramay, qilmish shu moddaning og‘irroq jazo belgilangan qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishni talab qiladi.

B. A. Kurinov keltirgan misolda esa real jinoyatlar majmui hosil qiluvchi ikkita bir xil jinoyatning ketma-ket sodir etilganini ko‘ramiz. Bunga mamlakatimizda chiqqan zamonaviy adabiyotlarda²⁵ ham e‘tibor berilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga

²⁴ Куринов Б. А. Научные основы квалификации преступлений. – М., 1984. – С. 171.

²⁵ Qarang: Алимов Г. А. Преступления против безопасности движения и эксплуатации транспорта. – Галлярал, 1998. – С. 18–19; Рустамбаев М. Х. Уголовное право Республики Узбекистан. Особенная часть. – Т., 2002. – С. 428.

qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida»gi 32-sonli 2000-yil 22-dekabr qarorida yetarlicha aniq tushuntirish berilgan. Uning 5-bandida aytilishicha, «aybdorning transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoiy harakatlari natijasida Jinoyat kodeksining ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari yuz bergan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 33-moddasi talabi asosida shu moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Shu bilan birga, ushbu jinoyatchilar qonunda ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqishi bilan tamomlangan deb hisoblanishi nazarda tutilib, *turli vaqtda sodir etilgan* (ta'kid bizniki. – M. B.) yo'l transport hodisalari alohida-alohida kvalifikatsiya qilinishi lozim»²⁶. Bunday vaziyatlarda uchinchi jinoyat ham bo'lishi mumkin. Bunga e'tibor qaratgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi mazkur 2000-yil 22-dekabrdagi 32-sonli qarorining 6-bandida quyidagilarni tavsiya etgan: «Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzib transport hodisasi ro'y berishiga sababchi bo'lgan shaxsning qilmishi shu hodisa tufayli hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan jabrlanuvchiga yordam ko'rsatmasligi, jinoyatlar majmui tariqasida qo'shimcha ravishda Jinoyat kodeksining 117-moddasining tegishli qismi bilan ham kvalifikatsiya qilinishi talab etiladi»²⁷.

«B» kichik guruhiga biz Oliy sud Plenumining sodir etilish xususiyatiga ko'ra faqat real jinoyatlar majmuini tashkil etishi mumkin bo'lgan qilmishlarni kvalifikatsiya qilishning xususiy qoidalari keltirilgan qarorlarni kiritdik. Mazkur qarorlarda ularni sodir etilish xususiyatiga ko'ra odatda har xil bo'lgan va biri boshqasining tarkibiy qismi bo'lmagan qandaydir boshqa jinoyatlar bilan birga (majmua tariqasida) kvalifikatsiya qilish zarurligiga e'tibor qaratiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toraj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli qarorining 4-bandida quyidagilar belgilangan: «Tovlamachilikni bosqinchilik va talonchilikdan farqlash-

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 57.

²⁷ Ўша жойда.

da tovlamachilikda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish mulkni zo'rlik ishlatayotgan vaqtda emas, balki kelajakda qo'lga kiritishga qaratilishiga e'tibor berish lozim. Agar qo'rqitish amalda ishlatilsa, qilmish Jinoyat kodeksining tovlamachilik haqidagi moddasi bilan va asoslar bo'lganda qo'rqitish amalga oshirilayotgan sodir etilgan harakat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan ham tavsiflanishi lozim»²⁸.

Plenumning ushbu tavsiyasi juda asoslidir, chunki tovlamachilik chog'ida tajovuzlarni bajarish borasida amalga oshirilgan harakatlar qonunda yozilish jihatidan ushbu jinoyat tarkibiga kirmaydi, shu bois amalda yuzaga kelgan oqibatlarga ko'ra tovlamachilik bilan bir qatorda, real jinoyatlar majmui qoidalarini bo'yicha shaxsga qarshi jinoyat sifatida mustaqil huquqiy baholashni talab qiladi.

Sodir etilayotgan jinoyatlarning xususiyatlarini inobatga olganda ularning majmui shubha uyg'otmasligi kerakdek tuyuladi, ammo amaliyotda ko'pincha xatolarga yo'lga qo'yiladi. Shu bois Oliy sud Plenumi tegishli tushuntirishlar kiritishga hamda kvalifikatsiya qilishning xususiy qoidalarini ifodalashga majbur. Masalan, Oliy sud Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli «Bezorlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida bezorlikning qurolni namoyish qilish, qo'llash bilan qo'rqitish yoki qo'llash bilan kechadigan kvalifikatsiya qiluvchi (og'irlashtiruvchi) belgisini talqin etishda quyidagi tavsiya ifodalangan: «Bezorlik jinoyatini sodir etishda ishlatilgan yoki namoyish etilgan o'qotar qurol tegishli ruxsatnomasiz aybdorning egaligida bo'lgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 248-moddasi bilan ham qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi»²⁹.

Afsuski, turli xil jinoyatlarni real jinoyatlar majmui qoidalarini bo'yicha kvalifikatsiya qilishning ushbu yetarlicha oddiy hollari ba'zan inobatga olinmaydi va tergov-sud amaliyotida, Oliy sud Plenumining tushunarli rahbariy izohlari mavjudligiga qaramay, xatolarga yo'l qo'yiladi. Oliy sud muayyan turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos qoidalarini ko'pincha ifodalab, shaxsning yana qandaydir jinoiy harakatlar sodir etishini atayin ta'kidlay-

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 221–222-б.

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 112–113.

di va ko'rsatadi. Bu esa butun qilmishni real jinoyatlar majmui qoidolari bo'yicha kvalifikatsiya qilishni keltirib chiqaradi. Masalan, Plenumning ilgari amalda bo'lgan «Qasddan odam o'ldirish ishlari-ga doir sud amaliyoti to'g'risida» 1996-yil 20-dekabr qarorining 15-bandida quyidagicha belgilab qo'yilgan edi: «Agar aybdor bezorilik maqsadlarida odam o'ldirishdan *tashqari* (ta'kid bizniki. – M.B.) jamoat tartibini qo'pol tarzda buzuvchi va jamiyatga oshkora hurmatsizlik ifodalovchi *boshqa* (ta'kid bizniki. – M.B.) harakatlarni sodir etgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismi «l» bandi va 277-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim»³⁰.

Aftidan, tergov organlari quyidagi holda aynan shu tushuntirish-larga asoslangan bo'lsalar kerak. Y. 2002-yil 30-mart kuni soat 20 da spirtli ichimlikdan mast holda xotinining qari onasi, yosh bolasi va xotini T. dam olib yotgan uyga kirib kelib, xotinini uyg'ota bosh-lagan. T. turishdan bo'yin tovlagach, Y. ana shu arziyas baxonani ro'kach qilib va birgalikda yashash qoidalarini qasddan mensimay, ya'ni bezorilik maqsadlarida janjal ko'targan va uni do'pposlay boshlagan. T. uydan ketishga harakat qilganida Y. bezorilik harakat-larini davom ettirib, xotinining ketishiga to'sqinlik qilishga uringan hamda ko'kragingning chap qismi sohasiga va kuragingning chap qismi-ga ikki bora pichoq urgan, unga hayot uchun xavfli tan jarohati yet-kazgan. Y. jinoiy maqsadiga o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli erisha olmagan, chunki bunga qizining baqirig'ini eshitib xonadan yugurib chiqqan T.ning onasi xalal bergan. U keyinchalik qiziga zarur tibbiy yordam ko'rsatgan va o'lishining oldini olgan.

Ushbu epizodni tergov organlari Jinoyat kodeksi 277-moddasi-ni uchunchi qismi «a» bandi bo'yicha xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilgan, chunki Y. ilgari bezoriligi uchun sudlangan hamda Jinoyat kodeksining 25-moddasi va 97-moddasining ikkinchi qismi «l» va «j» bndlari bo'yicha o'ta shafqatsizlik bilan bezorilik maqsadlarida sodir etilgan odam o'ldi-rishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilgan³¹. Tergov organlari ushbu epizodni kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'ygan asosiy

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–1997. – Т., 1997. – Б. 204–205.

³¹ Qarang: Тошкент шаҳар судининг 2002 йилги архиви. Иш № 1–834/2002.

xato shundaki, Y. bezorilik maqsadlarida qasddan odam o'ldirganlikdan boshqa mustaqil bezorilik harakatlari sodir etmagan. Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sud hay'ati T.ni o'ldirishga bezorilik maqsadida suiqasd qilganlik epizodi bo'yicha Y.ning qilmishlari Jinoyat kodeksining 277-moddasi uchinchi qismi «a» bandi bo'yicha noto'g'ri kvalifikatsiya qilinganligini ko'rsatib, ushbu moddani ayblovdan chiqarib tashlagan va to'g'ri qilgan.

Jinoyat ishlari bo'yicha sud hay'ati bunday qarorni asoslash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 2002-yil 14-iyun qarorining 12-bandida keltirilgan quyidagi boshqa rahbariy tushuntirishga tayangan: «Agar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan moddalarida (JKning 277-moddasidan boshqa) bezorilik, o'sha jinoyatni kvalifikatsiya qiluvchi alohida belgi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, bu holat qilmishni Jinoyat kodeksining 277-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni istisno etadi (masalan, Jinoyat kodeksi 104-moddasi ikkinchi qismining «ye» bandi, 97-moddasi ikkinchi qismining «l» bandi)»³².

Ba'zan Oliy sud ikkinchi jinoyatni aniq ifodalamagan holda real jinoyatlar majmui hosil qiluvchi turli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos qoidalarini belgilaydi. Bu esa ularni aniq qayd etish mumkin emasligi bilan bog'liq. Biroq bu hol rahbariy tushuntirishning huquqiy tabiatini o'zgartirmaydi, balki huquqni qo'llovchidan muayyan jinoyat ishi materiallarini ijodiy baholashni hamda jinoyatning aniq tarkiblari belgilarini aniqlashni talab qiladi. Masalan, Oliy sud Plenumining «O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 20-sonli 1998-yil 11-sentabr qarorining 5-bandida kvalifikatsiya qoidasi quyidagicha ifodalangan: «Sudlarga tushuntirilsinki, agar o'zini o'zi o'ldirish va shu darajaga yetkazish aybdor tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan boshqa og'irroq jinoyat sodir etilganligi oqibatida yuz bergan bo'lsa, lekin ushbu jinoyat tarkibi bunday harakatlarni qamrab olmasa, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishdagi aybdorning harakatlari qo'shimcha tavsiflashni talab qiladi»³³.

³² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 114.

³³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 168.

Ayrim hollarda Oliy sud Plenumi huquqni qo'llovchilarning e'tiborini jinoyatlar tarkibining tuzilishiga va ularning tamomlanish paytiga to'g'ri qaratadi. Bu hol ushbu aniq jinoyat doirasidan chiquvchi qandaydir qilmishlar ham sodir etilgan hollarda real jinoyatlar majmui mavjudligini belgilab beradi. Masalan, Oliy sud Plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi 11-sonli qarorining 14-bandida quyidagilar ko'rsatilgan: «Soxta tadbirkorlik to'g'risidagi (JKning 179-moddasi) ishlarni ko'rishda shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirmay turib noqonuniy kreditlar olish, soliqlardan ozod bo'lish, egallashga huquqi bo'lmagan boshqa mulkiy foydani olish maqsadini ko'zlaganligi hisobga olinishi lozim. Bunday maqsadning aniqlanishi shaxsning harakatini Jinoyat kodeksining 179-moddasi hamda talon-toroj qilishga suiqasd qilish va soliq to'lovlari to'lashdan bo'yin tovlash va hokazolar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari majmui bilan tavsiflash uchun asos bo'lishi mumkin»³⁴.

Biz real jinoyatlar majmui mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladigan qoidalarni ifodalagan qarorlarni «v» guruhiga kiritdik va bunda ana shunday jinoyatlardan loaqal bittasi vaqtda davom etishini nazarda tutdik. Amaliyotda vaqtda muayyan davomiylikka ega qandaydir jinoyatni sodir etish jarayonida boshqa yangi jinoyat sodir etilgan hollar uchrab turadi. Bunda yangi jinoyat birinchi jinoyat sodir etilgan vaqt doirasida to'liq amalga oshirilishi, shuningdek u bilan faqat qandaydir bosqichda mos kelishi ham mumkin. Biroq bu hol qilmishni real jinoyatlar majmui sifatida baholashga ta'sir etmasligi kerak, chunki real jinoyatlar majmuining huquqiy belgilari har doim ham mavjud bo'ladi.

Masalan, Oliy sud Plenumining 1995-yil 27-oktabrdagi 21-sonli «Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 21-sonli qarorining 8-bandida tushuntirilishicha, «bangixona saqlovchisi tomonidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar sotilgan yoki o'tkazilgan bo'lsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksi 273-moddasining tegishli qismlarida nazarda

³⁴ O'sha joyda. – B. 119–120.

tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak»³⁵. Ushbu holda giyohvandlik vositalarini o'tkazish boshqa jinoyatni sodir etish – bangixona saqlash vaqtida yuz beradi, ya'ni bangixona saqlash doirasiga to'liq kirib ketadi, ammo bu hol ushbu bir turdagi jinoyatlarni real jinoyatlar majmui qoidalari bo'yicha kvalifikatsiya qilishni istisno etmaydi.

Har xil jinoyatlardan biri ikkinchisining sodir etilish doirasida to'liq amalga oshgan vaqt bo'yicha mos kelishining misoli bo'lib Oliy sud Plenumining «Respublika sudlari tomonidan ommaviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq ayrim masalalar to'g'risida»gi 38-sonli 1996-yil 20-dekabr qarorining 1-bandida «b» kichik bandida keltirilgan tushuntirish xizmat qilishi mumkin. Unda qayd etilishicha, «ommaviy tartibsizliklarning ishtirokchilari tomonidan o'g'irlashlar, talonchilik, bosqinchiliklar qilish va boshqa alohida jinoyat tarkibini tashkil etuvchi jinoyatlar sodir etilganda jinoyatlar majmuasi bilan tavsiflanadi»³⁶.

Faqat qaysidir bosqichdagina, buning ustiga yo boshida, yo oxirida mos keladigan real jinoyatlar majmui holatini namoyish etuvchi boshqa bir misolni Oliy sud Plenumining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 26-dekabrda tasdiqlangan Bojxona kodeksining qabul qilinishi munosabati bilan sud amaliyotida vujudga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi 1998-yil 28-dekabr-dagi 30-sonli qarorida topamiz. Uning 6-bandida tovarlar yoki boshqa boyliklarni O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tish singari jinoyatning tamomlanish payti tushuntiriladi: «Tovarlarni g'ayriqonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tish g'ayriqonuniy ravishda chegaradan tashqariga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga kirish yoki belgilangan tartiblarni buzib chegaradan o'tish bilan bog'liq bo'lsa, bunday harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 38.

³⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 74.

kodeksining 182 va 223-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarning yig‘indisi sifatida tavsiflanishi lozim»³⁷.

Xuddi shunday tushuntirish Oliy sud Plenumining «Kontrabanda va bojxona qonunlarini buzish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 1996-yil 27-fevraldagi 2-sonli qarorida mavjud. Uning 5-bandida yozilishicha, «shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasida qayd etilgan ashyolarni kontrabanda qilish yoxud O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasida ko‘rsatilgan tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasi chegarasidan o‘tkazish bilan bir qatorda boshqa (masalan, qonunga xilof ravishda o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini egallash yoki ularga egalik qilish, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish va hokazo) jinoyatlarni sodir etgan hollarda aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim»³⁸.

Bir qator hollarda sodir etilish vaqti bo‘yicha mos keluvchi real jinoyatlar majmui mavjudligidan jinoyat sodir etish maqsadi va usuli kabi belgilar dalolat beradi. Chunki ular jinoyat qonunining aniq moddasi dispozitsiyasida bevosita nazarda tutilganida jinoyatning ushbu tarkibidagi majburiy belgilar sifatida xizmat qiladi. Aynan shu majburiylik real jinoyatlar majmui borligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Oliy sud Plenumining «Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qonunlarning sudlar tomonidan qo‘llanilishi haqida»gi 6-sonli 2003-yil 6-iyun qarorining 11-bandida keltirilgan tushuntirish ham ana shu qoidaga asoslanadi. Unda belgilanishicha, «davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga qasddan ko‘maklashishga qaratilgan harakatlari jinoyatda ishtirokchilik sifatida Jinoyat kodeksining 28-moddasi hamda 108-moddasining tegishli qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Agar, ayni paytda ular g‘araz yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ham ko‘zlagan yoki shu maqsadlarda

³⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 209.

³⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 44.

jinoyatni yashirishga ko‘maklashgan bo‘lsalar, ularning harakatlari Jinoyat kodeksining boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, shu jumladan, pora olganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari (JK 205, 209, 210-moddalari) bilan ham qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinishi lozim»³⁹.

Bir qator hollarda real jinoyatlar majmui jinoyatlarning birinchisi ertaroq boshlangan, lekin ikkinchisi bilan bir vaqtda tamom bo‘lgan hollarda kuzatiladi. Ushbu qoida ularni jinoyatlarga kiritishning majburiy asosi sifatida ma‘muriy preyuditsiyaning mavjudligi nazarda tutiladigan jinoyatlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Bunday jinoyatlar takroriy harakatlar bilan sodir etiladi, bunda ushbu harakatlarning har biri ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘ladi va, binobarin, ulardan birinchisi sodir etilgan paytdan boshlab vaqtda davom etadi. Eng ko‘p darajada bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaqt oralig‘i – ma‘muriy jazo tayinlangan kundan boshlab bir yil, shundan keyin ma‘muriy nojo‘ya harakatning huquqiy oqibatlari tugaydi. Ushbu vaqt oralig‘ida boshqa jinoyat sodir etilishi mumkin bo‘lib, u tugallanish payti bo‘yicha takroriy ma‘muriy nojo‘ya harakat bilan mos kelishi mumkin. Bu hol birinchi qilmishni ham jinoyatlar toifasiga kiritish uchun asoslar mavjudligidan dalolat beradi va real jinoyatlar majmui chog‘ida kvalifikatsiya qoidalarini qo‘llashni talab qiladi.

Ushbu vaziyatlarni tanib olish va huquqni qo‘llashda huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholash ancha murakkab ish. Bu hol Oliy sud Plenumini bir qancha qarorlarida bunga e‘tibor qaratishga undadi. Plenum bir holda huquqni qo‘llovchiga ularning yuzaga kelishi mumkinligini bilvosita ta‘kidladi, boshqasida esa jinoyatlar majmui bo‘yicha huquqiy baholashni yetarlicha aniq tavsiya qildi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 25-oktabrdagi «Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari haqida»gi 26-sonli qarorining 4-bandida quyidagilarga e‘tibor qaratilgan: «Jinoyat kodeksining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi ayrim moddalari dispozitsiyasida shaxsni javobgarlikka tortish uchun unga nisbatan muqaddam ma‘muriy jazo qo‘llanilgan bo‘lishi shart-

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 134.

ligi nazarda tutilgan... Sudlar shuni e'tiborda tutishlari kerakki, aybdorning muqaddam tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jinoyati uchun Jinoyat kodeksi 72-moddasi tartibida belgilangan sinov muddati davrida, shuningdek ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni o'tashi davomida yoki jazoni o'tab bo'lgandan so'ng sudlanganlik holati tugallanmasdan yoxud qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan tadbirkorlikka oid huquqbuzarlikni sodir etganda ham uning muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi talab qilinadi»⁴⁰. Jinoyat kodeksi ayrim moddalarining tegishli qismlari dispozitsiyalarida xavfli retsidivist tomonidan jinoyat sodir etish javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgi sifatida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (JK 188, 189, 190-moddalarining 2-qismlari «a» bandlari).

Ushbu qarorda biz ko'rib chiqayotgan vaziyat yetarlicha aniq namoyon bo'lmaydi, ammo bor, zero tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ikki jinoyatning vaqtda mos kelishini istisno etmaslik lozim va bunday vaziyatlar haqiqatan ham mavjud. Buning tasdig'i bo'lib Plenumning biz ko'rib chiqayotgan vaziyat yetarlicha aniq sharhlangan va aniq tavsiya qiyofasini olgan boshqa qarori xizmat qilishi mumkin.

Gap Oliy sud Plenumining «Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi 11-sonli 1998-yil 17-aprel qarori haqida bormoqda. Ushbu qarorning 23-bandida Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyat xususida quyidagilar yozilgan: «Soliq to'lashdan bo'yin tovlash, foydani, daromadni va soliq to'lanadigan boshqa obyektlarni yashirish, kamaytirib ko'rsatish davomli jinoyat hisoblanadi. Shu sababli zarar miqdori soliq to'lanmagan barcha muddat uchun kam to'langan summalar yig'indisi bilan belgilanishi kerak»⁴¹. Ushbu tushuntirish juda muhim, chunki O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 121.

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 123.

kiritish to'g'risida»gi 2001-yil 29-avgust qonuniga muvofiq⁴², Jinoyat kodeksi 184-moddasining tahriri o'zgartirildi va jinoiy javobgarlik kelib chiqishining sharti sifatida ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng sodir etilgan ancha miqdordagi bo'yin tovlash nazarda tutildi.

Mazkur qarorning 16-bandida ko'rsatilishicha, «qonunni buzgan holda aksiz markalarisiz savdo faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning harakatini tavsiflashda sudlar O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga binoan aksiz soliqning bir turi ekanligi va shu sababli aybdorlar Jinoyat kodeksining 184 va 189-moddalari bo'yicha javobgarlikni ko'zda tutuvchi *jinoiyatlar majmui* (ta'kid bizniki. – M.B.) bilan javobgar qilinishlari kerakligidan kelib chiqishlari lozim»⁴³. Shunday qilib, agar soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlaganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ularni to'lashdan bo'yin tovlashda davom etsa va aksiz markalarsiz savdo faoliyati bilan shug'ullansa, oxir-oqibatda bunday faoliyatni katta miqdorda amalga oshirsa, ushbu qilmish tamomlanish payti o'zaro mos keladigan jinoyatlar majmuini tashkil etadi.

2. *Real jinoyatlar majmuiga kirmaydigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish.* Oliy sud Plenumining bir qator qarorlarida jinoyatlar ni real jinoyatlar majmui qoidalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish haqida tavsiyalar berilgan, shu bilan birga ayrim shartlar mavjud bo'lsa, ular murakkab tarkibli yagona jinoyat sifatida baholanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 13-sonli qarorining 26-bandida tushuntirilishicha, «ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxs tomonidan jazoni ijro etish muassasasi xodimini, shuningdek, mahbusni uning axloqan tuzalishiga to'sqinlik qilish yoxud jamoat vazifasini bajarganligi uchun o'ch olish maqsadida qasddan o'ldirish Jinoyat kodeksi 97-moddasining tegishli qismidan tashqari, Jinoyat kodeksining ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar uchun javob-

⁴² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9–10. – 165-м.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 120.

garlikni nazarda tutuvchi 220-moddasi bo'yicha ham kvalifikatsiya qilinishi lozim»⁴⁴. Mahkumlarni qiynash chog'ida sodir etilgan qasddan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilish tartibi yetarlicha aniq ta'riflangan, shunga qaramay, bizningcha, ma'muriyat vakilini qasddan o'ldirishni kvalifikatsiya qilishga berilgan huquqiy baho bahssiz emas.

Ma'muriyat vakiliga hujum qilish deganda, u o'zining xizmat burchini bajarishi munosabati bilan unga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik qo'llash tushuniladi, zero agar bunday hujum g'ayriqonuniy harakatga qarshi javob sifatida yoxud boshqa motivlar bo'yicha amalga oshirilsa, aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 220-moddasi bo'yicha emas, balki shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim⁴⁵. Jinoyat kodeksining 97-moddasidagi og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi ikkinchi qismiga murojaat etish qonun chiqaruvchi organ «g» bandida bunday holatlardan biri sifatida ushbu jinoyatning jabrlanuvchining o'z xizmat burchini bajarishi munosabati bilan sodir etishini nazarda tutganligini aniqlashga imkon beradi. Jabrlanuvchining o'z xizmat burchi yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan uning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish maqsadida, shuningdek bunday faoliyat uchun qasos olish motivlari bo'yicha sodir etilgan odam o'ldirishni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «g» bandi bo'yicha Oliy sud Plenumining tushuntirishlari mazmunidan kelib chiqib kvalifikatsiya qilish lozim.

Mamlakatimizning hozirgi adabiyotlarida muayyan toifadagi shaxslarga o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishlari munosabati bilan amalga oshirilgan hujum motiv sifatida xizmat qilishi masalasidagi nuqtai nazar yetarlicha aniq dalillar bilan asoslab berilgan, zero «xizmat burchini bajarish deganda, jabrlanuvchining o'ziga yuklatilgan xizmati bo'yicha funksional vazifalari doirasida amalga oshirayotgan har qanday faoliyati tushuniladi, fuqarolik bur-

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 200–201.

⁴⁵ Qarang: *Рустамбаев М. Х.* Уголовное право Республики Узбекистан. Особенная часть. – Т., 2002. – С. 329; Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий. – Т., 1996. – С. 288.

chini bajarish esa har qanday fuqaroning har qanday ijtimoiy-foydali va huquqiy faoliyatini nazarda tutadi»⁴⁶. Shunday ekan, shaxsning qasdini (g‘arazini) shakllantiruvchi maqsadli mayllarini belgilab beradigan bunday motivlar ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining ma‘muriyatidan bo‘lgan shaxsga uning o‘z xizmat burchini bajarishi munosabati bilan, uni bajarishiga to‘sqinlik qilish yoki hayotdan mahrum qilish orqali qasos olish maqsadida hujum qilish ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasining ishini izdan chiqaradi va Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismi «g» bandida nazarda tutilgan qasddan odam o‘ldirishdan bo‘lak narsa emas.

Jabrlanuvchining barcha ana shunday hollardagi faoliyati ustunlik qiluvchi motiv bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu motiv asosiy maqsadli yo‘nalishini – uni hayotdan mahrum qilish va bu bilan xizmat faoliyatini davom ettirishiga to‘sqinlik qilish yoki buning uchun qasos olishni shakllantiradi. Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatining xodimini o‘ldirish natijasida uning ishini izdan chiqarishga to‘xtalsak, u holda ushbu maqsad bilvosita, fakultativ xususiyatga ega bo‘lib asosiy maqsadga erishishni istash chog‘ida ongli ravishda bunga yo‘l qo‘yiladi. Shunday qilib, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyatiga hujum qilish Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismi «g» bandida ifodalangan va qonun bo‘yicha eng qattiq jazolanadigan murakkab tarkibli jinoyat hisoblanadi. Bu hol faqat bitta jinoiy-huquqiy norma bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim bo‘lgan yagona jinoyat mavjudligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi «Qasddan odam o‘ldirishga oid sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 13-sonli qarorining 9-bandini quyidagi xat boshi bilan to‘ldirish zarur deb o‘ylaymiz: *«Ayni vaqtda agar ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasining ishini izdan chiqarish chog‘ida qasddan odam o‘ldirish ma‘muriyatga hujum tarzida sodir etilgan bo‘lsa, qilmish faqat xizmat burchini bajarish munosabati*

⁴⁶ Закирова А. Г. Уголовно-правовая охрана личности и прав сотрудников правоохранительных органов: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1997. – С. 9,16.

bilan shaxsni qasddan o'ldirish sifatida, ya'ni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «g» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim».

Yagona jinoyatni real jinoyatlar majmui bilan almashtirish muammosi ko'p jihatdan ularning farqini aniqlashning yuridik-texnik usullari yetarli ishlanmaganligi bilan emas, balki ko'proq sudyalarning va boshqa amaliyot xodimlarining huquqiy ongida saqlanib qolgan jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligiga jazolash siyosatini kuchaytirish evaziga erishish mumkin, degan eski aqidalar bilan bog'liqdir. Biroq bizning davlatimiz bu tamoyildan voz kechdi. Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov o'zining «Adolat – qonun ustuvorligida» nomli ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida bu haqda aniq aytdi: «Bugun jinoyat uchun jazo tayinlash borasida yuqorida keltirilgan yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi»⁴⁷. O'ylaymizki, jinoyatga qarshi siyosatni nafaqat jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlar darajasida o'zgartirish lozim. Buni huquqni qo'llash amaliyoti va, albatta, Oliy sud Plenumining rahbariy tushuntirishlari (ular ushbu amaliyotni ko'p jihatdan shakllantiradilar) darajasida ham amalga oshirish lozim.

Kvalifikatsiya qilish jarayonida yagona jinoyatni real jinoyatlar majmui bilan almashtirish, shubhasiz, javobgarlikni ancha kuchaytirishga olib keladi. Ushbu faktlar qanchalik ezgu niyatlar bilan bog'liq bo'lmasin, bu hol ularning noqonuniyligini oqlamaydi. Ushbu qoidani bitta tushuntirish bilan asoslab beramiz.

Masalan, Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «i» bandida qasddan odam o'ldirishning og'irlashtiruvchi holatlaridan biri sifatida g'araz maqsadlar nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 13-sonli 2004-yil 24-sentabr qarorining 14-bandida «bosqinchilik, tovlamachilik bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish harakatlari Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «i» bandi hamda Jinoyat kodeksining bosqinchilik va tovlamachilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bilan

⁴⁷ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т., 2002. – Б. 37.*

kvalifikatsiya qilinadi»⁴⁸, deb tushuntirgan. Ushbu toifadagi ishlarga oid avvalgi qarorlarda ham keltirilgan mazkur tavsiya asosida bu kabi vaziyatlarni real jinoyatlar majmui qoidolari bo'yicha kvalifikatsiya qilishning ko'plab huquqni qo'llash amaliyoti qaror topgan. Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi ko'rib chiqqan faqat bitta jinoyat ishi hujjatlarini misol qilib keltiramiz⁴⁹.

Mahkumlar K., G. va I. bo'lg'usi jabrlanuvchi yaqindagina o'z avtomashinasini 3100 AQSh dollariga sotganligini bilib, avvaldan til biriktirib, ilgari pichoq va qo'lqoplarni tayyorlab hamda K. ishlab chiqqan reja bo'yicha vazifalarni o'zaro taqsimlab, uning tanishi bo'lgan Sh.ning xonadoniga bordilar. K. kvartira eshigining qo'ng'irog'ini bosib, Sh. uni ochganida qo'li bilan uning yuziga zarba bergan. Jabrlanuvchi Sh. oshxonaga yugurgan, ammo qoqilib ketib polga yiqilgan. G. esa oshxonada unga yetib olib, yonidagi pichoq bilan uning ko'kragiga oldi va orqasidan bir necha marta jarohat yetkazgan. Olingan jarohatlardan Sh. o'sha joyning o'zida halok bo'lgan. Shu payt xonada bo'layotgan shovqinni eshitgan Sh.ning ma'shuqasi A. xonadan yugurib chiqqan. U Sh.ning jasadini ko'rib, dod solib qo'shnilarni yordamga chaqira boshlagan. Shovqin va qichqiriqlardan qo'rqib ketgan K. va I. kvartiradan qochib ketganlar, G. esa zina maydonchasiga yugurib chiqqan A.ga yetib olib, pichoq bilan uning ko'kragiga, chap yelkasi va qovurg'alari sohasiga zarbalar bergan, shundan so'ng jinoyat sodir etilgan joydan qochib yashiringan. A. kasalxonaga yotqizilgan, ammo besh kundan so'ng pichoqdan olgan jarohatlari oqibatida vafot etgan. Aybdorlarning harakati Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining bir qancha bndlari, jumladan «i» bandi bo'yicha g'araz maqsadlarda qasddan odam o'ldirish sifatida hamda Jinoyat kodeksi 164-moddasi uchinchi qismining «v» va «g» bndlari bo'yicha bosqinchilik sifatida kvalifikatsiya qilindi.

Biz bunday tavsiya va shakllangan huquqni qo'llash amaliyotining asosli ekaniga qo'shila olmaymiz. Bu xulosamiz Plenumning 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli qarorining o'sha 14-bandida keltirilgan hamda yuridik va mantiqiy jihatdan yetarlicha tekshirilgan

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 197.

⁴⁹ Qarang: Жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар судининг 2002 йилги архиви. Иш № 1-449/2002.

boshqa tushuntirishga asoslanadi. Unga ko'ra, «aybdorning o'zi yoki boshqa shaxslar uchun moddiy naf ko'rish (pul, mol-mulkni yoki unga egalik huquqini, turar joyga nisbatan va shu kabi huquqlarni qo'lga kiritish) yoki moddiy xarajatlardan (mol-mulkni, qarzni qaytarishdan, xizmatga haq to'lashdan, mulkiy majburiyatlarni bajarishdan, aliment to'lash va shu kabilardan) qutulish maqsadida qasddan odam o'ldirishi tamagirlik niyatida sodir etilgan jinoyat sifatida (JK 97-moddasi ikkinchi qismining «i» bandi bilan) kvalifikatsiya qilinishi lozim»⁵⁰. Binobarin, qasddan odam o'ldirishda tamagirlik niyatida sodir etilgan jinoyatdan qandaydir moddiy foyda olish, jumladan, jabrlanuvchining mulkini egallab olishga intilishni qamrab oladi. Ammo xuddi shu maqsad bosqinchilikda ham ko'zlanadi, biroq u uncha xavfli bo'lmagan usulda bajariladi. Bu esa uning o'zganing mulkini talon-toraj qilish maqsadida birovni qasddan o'ldirishdek xavfli hujum usuli bilan qamrab olinishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, odam o'ldirish jabrlanuvchining mulkiga egalik qilish chog'ida uning qarshiligini yengish usuli sifatida Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi «i» bandi bilan to'liq qamrab olinadi, bu esa bosqinchilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bilan real jinoyatlar majmui hosil qilishini istisno etadi.

Shu o'rinda yana bir omil, ya'ni g'araz niyatda odam o'ldirishga qasd shakllangan paytda e'tibor berish lozim. Agar ushbu qasd odam o'ldirish boshlanishidan avval shakllangan bo'lsa, jinoyatning bu tarkibi doimo o'zganing mulkini egallab olishga qaratilgan barcha keyingi harakatlar bilan qamrab olinadi. Bunday qasd odam o'ldirish paytida yoki undan keyin shakllangan, aniqrog'i, yuzaga kelgan bo'lsa, qilmishni jinoyatlar majmui bo'yicha, lekin bosqinchilik bilan emas, balki o'g'rilik bilan birga kvalifikatsiya qilish lozim. Shu bois Oliy sud Plenumi 13-sonli 2004-yil 24-sentabr qarorining mazkur bandida «agar aybdorda moddiy naf ko'rishga nisbatan qasd qotillik sodir etilganidan keyin paydo bo'lgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasining tegishli qismi bilan hamda Jinoyat kodeksining o'zganing mulkini talon-toraj qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinmog'i lozim», deb yetarlicha aniq tushuntirish beradi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib Oliy sud Plenumi-

⁵⁰ O'sha joyda.

ning 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli qarori 14-bandining to'rtinchi xatboshisini chiqarib tashlash lozim, chunki bu qoida jazolash siyosatini noqonuniy kuchaytirishning ifodasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 13-sonli qarorida, bizningcha, yagona jinoyat real jinoyatlar majmui hosil qiluvchi ikkita mustaqil jinoyatga noto'g'ri bo'lingan. Qarorning 6-bandida shunday yozilgan: «Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish, agar aybdorning harakatlari yagona qasd bilan qamrab olingan va, odatda, bir vaqtning o'zida sodir etilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga nisbatan qasd mavjud bo'lganida jabrlanuvchilardan faqat bittasi o'lib, boshqalari aybdorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra o'lmay qolgan bo'lsa, qilmishni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi bilan ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish tariqasida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Bunday hollarda aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksi 25, 97-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi va 97-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak»⁵¹.

Bunday vaziyatni tahlil qilishda avvalo quyidagi asosiy shartdan kelib chiqish zarur: qilmish aybdor harakatlari va qasdining umumiyliigi (birligi) bilan qamrab olinadi, ya'ni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «a» bandiga to'g'ri keladi. Ushbu shartning mavjud emasligi mazkur moddaning «r» bandida nazarda tutilgan takroriylikning mavjudligini belgilab beradi, xolos. Plenum quyidagilarni ta'kidlab, ushbu holatga ham to'g'ri e'tibor bergan: «Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish, garchi bu jinoiy harakatlari bir vaqtning o'zida sodir etilgan bo'lsa-da, lekin aybdorning yagona qasdi bilan qamrab olinmagan bo'lsa, qilmish takroran qasddan odam o'ldirish tariqasida Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «r» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi». Bundan tashqari Jinoyat kodeksi 25-moddasining uchinchi qismiga binoan, jinoyatning tugallanganlik darajasi qandayligidan qat'i nazar, qilmish Jinoyat kodeksi Umumiy qismining tamomlangan jinoyatni

⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 193.

nazarda tutuvchi moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Oliy sud taklif qilgan kvalifikatsiya formulasini tushuntiradigan bo'lsak, u bitta tamomlangan qasddan sodir etilgan odam o'ldirish hamda ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirishga suiqasd qilishni bildiradi. Ammo bu haqiqatga mos kelmaydi, zero odam o'ldirishga suiqasd qilish amalda ikki shaxsga emas, balki faqat aybdorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra o'lmay qolgan ikkinchi jabrlanuvchiga nisbatan amalga oshiriladi. Bitta jinoyatni real jinoyatlar majmui qoidalariga bo'yicha huquqiy baholash ayni bir jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortishga yo'l qo'ymaydigan adolat prinsipi (JK 8-m. 2-q.)ga ham, umumiy kvalifikatsiya nazariyasida yetarlicha asoslangan holda ishlab chiqilgan va umum e'tirof etgan tugallanmagan jinoiy faoliyatda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy qoidalariga ham zid keladi⁵².

Ushbu qoidalarga muvofiq, agar shaxs mazkur jinoyat tarkibi uchun zarur bo'lgan barcha belgilarni bajarishni majburan to'xtatgan bo'lsa, qilmish 25-moddaning tegishli qismini qo'llagan holda kvalifikatsiya qilinmog'i lozim⁵³. Ushbu vaziyatda oqibat normada ikkinchi jabrlanuvchining o'limi tarzida nazarda tutilgan hajmda to'liq kelib chiqmaydi. Ammo bu hol qilmishni huquqiy baholashning umumiy qoidasiga hech bir istisno kiritmasligi lozim. Binobarin, ikki kishini hayotdan mahrum qilishdek yagona qasd aybdorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra amalga oshmay qolgan hollarda qilmish faqat ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirishga sui-qasd qilish sifatida, ya'ni Jinoyat kodeksi 25-moddasining ikkinchi qismi va 97-moddasining ikkinchi qismi «a» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bu esa mazkur qarorning 6-bandidan umumiy jinoiy-huquqiy prinsiplarni buzuvchi ikkinchi xatboshisini chiqarib tashlash zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, biz huquqni qo'llash amaliyotidagi eng tipik va ko'p uchraydigan hamda real jinoyatlar majmui hosil qiladigan jinoyatlar qo'shilishini, ularni kvalifikatsiya qilish va yagona jinoyatlardan ajratish xususiyatlarini ko'rib chiqdik.

⁵² Qarang, masalan: Куринов Б. А. Научные основы квалификации преступлений. – М., 1984. – С. 118–129; Гаухман Л. Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. – М., 2001. – С. 173–188; va boshq.

⁵³ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳ. – Т., 1997. – Б. 45.

IDEAL MAJMUA SHAROITIDA JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH

Ideal majmua sharoitida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammosi eng murakkab muammo hisoblanadi, chunki qonunda ham, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlarida ham yagona jinoyatning ushbu turi ta'riflanmaganligi, jinoyat huquqi ta'limotida bir xil yondashuvning yo'qligi amaliyotda «sinov va xatolar» usulida harakat qilishga, real jinoyatlar majmuini tartibga soluvchi Jinoyat kodeksi 33-moddasining qoidalarini unga qo'llab, analogiya bo'yicha harakat qilishga yoxud precedent huquqi elementlariga asoslanib, Oliy sud Plenumining rahbariy qarorlarida, shuningdek aniq jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarida mavjud bo'lgan muayyan toifadagi ishlar bo'yicha ideal majmua hollarini kvalifikatsiya qilish masalalari borasidagi kam sonli tushuntirishlardan foydalanishga majbur etadi.

Lekin masalaga bunday yondashish to'g'ri emas, zero O'zbekistonning amaldagi jinoyat qonunchiligi analogiya institutini rad etadi (JK 4-m.), shuningdek aniq jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini ham, Oliy sud Plenumi rahbariy qarorlaridagi tushuntirishlarni ham jinoyat huquqi manbalariga kiritmaydi (JK 1-m.).

Ideal majmua sharoitida jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy kafolatlarini ta'minlashda va davlatning jinoyatga oid siyosatini shakllantirishda o'ynaydigan rolikdan tashqari, u ichki ishlar organlarining statistik hisoblarida o'z aksini topib, ularning faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, Jinoyatlarning yagona hisobi to'g'risidagi yo'riqnomaning 5-§da ideal majmuaga munosabat uning ta'rifida ifodalangan. Aftidan, Yo'riqnoma ushbu terminga izoh berilgan yagona rasmiy hujjatdir. Unda ideal majmua quyidagicha ta'riflangan: «5-§. Kartochkalarni tuzishda quyidagilarga asoslanish zarur:

I. Quyidagilar bitta jinoyat sifatida hisobga olinadi (bitta kartochka tuziladi):

...g) bitta harakat bilan bajarilgan ikkita har xil jinoyatning sodir etilishi (ideal majmua); bunda og'irroq jinoyat inobatga olinadi.

Masalan: tanosil kasalliklarini yuqtirib nomusga tegish nomusga tegish sifatida hisobga olinadi».

Avvalo, Oliy sud Plenumi va mazkur Yo'riqnomada ideal majmuani tushunishga har xil yondashilishi natijasida qilmishni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish va qo'shimcha kartochkalar ochishga yo'l qo'yilmoqda, bu esa jinoyatchilik holatining umumiy manzarasi va uning ochilishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Toshkent shahri IIBBning ayrim shahar va tuman organlarida ideal majmua sharoitida kartochkalarni noto'g'ri ochishdan kelib chiqqan xatoliklar qayd etilgan umumiy jinoyatlarning 2-5 %ni tashkil etadi. Umuman, poytaxt uchun katta ahamiyatga ega bo'lmagan jihat alohida shahar, tuman organining ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari, hisobga olingan va ideal majmuaga kiruvchi jinoyatlar bilan bog'liq suiiste'molliklar ham ochilish foizini oshirishi mumkin.

Ideal majmua sharoitida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muam-molari mamlakatimiz va xorijdagi aksariyat huquqshunos olimlar-ning ishlarida o'z aksini topmoqda. Ularning ayrimlari xususidagi nuqtai nazarlarning farqlanishi, avvalo, ideal majmua mazmunining tushunilishidan kelib chiqadi. Jinoyatlarning ideal majmui deganda ikki yoki undan ortiq har xil jinoyatlar belgilari bo'lgan bitta ijti-moiy xavfli qilmishni tushunish lozim. Shu munosabat bilan qil-mishni ideal majmua sifatida kvalifikatsiya qilish zarurati ayni vaqtda mustaqil jinoyat sifatida baholanadigan usul (vosita) bilan jinoyat sodir etilganida, shuningdek sodir etilgan jinoyat ayni vaqt-ning o'zida boshqa jinoyatning sodir etilishiga tayyorgarlik bo'lganida yuzaga keladi.

Mazkur vaziyatlarni tahlil qilamiz.

Jinoyatni sodir etish usuli (vositasi) ayni vaqtda mustaqil jinoyat sifatida baholanadigan holatlar. Qilmishni ideal majmua sifatida kvalifikatsiya qilishda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun ji-noyat-huquqi ta'limotida uning ikki turi – bir obyektli va har xil obyektli turlari ajratiladi. Biroq ideal majmuaning ushbu turlarini tushunishda har xillik kuzatiladi.

Masalan, A. M. Yakovlev bir obyektli ideal majmuani bir xil (bir turdagi) ayb shakli bilan hamda har xil ayb shakli bilan bo'lgan majmualarga ajratib, ayni bir obyektga tajovuz qiluvchi jinoyatlar-ning ideal majmui faqat ushbu jinoyatlarning sodir etilishi chog'ida har xil shakllardagi ayb mavjud bo'lgandagina bo'lishi mumkin, deb hisoblagan. Obyekt va ayb shakli ikkala jinoyatda mos kelgan taq-

dirda esa, ideal majmua mavjud bo'lmaydi, jinoyat tarkiblari esa qamrab olinishi kerak⁵⁴.

V. P. Malkov masalaga bunday yondashuvga e'tiroz bildiradi. U shakllangan sud amaliyotiga asoslanib, «aybning ayni bir shakli orqali ifodalanadigan va bitta obyektga tajovuz qiladigan hollarni ideal jinoyatlar majmui sifatida ta'riflaydi.

Ammo bunday kvalifikatsiya quyidagi hollarda bo'lishi mumkin: 1) ayni bir tajovuz obyekti mavjud bo'lganida va ayni bir ayb shakli doirasida qasdning yo'nalishida yoxud uning turlarida (ayni bir natijaga nisbatan qasd to'g'ri, boshqasiga nisbatan egri va aksincha), yoki ehtiyotsizlikning turlarida (bir natijaga nisbatan jinoiy o'z-o'ziga ishonch, boshqasiga nisbatan – jinoiy ehtiyotsizlikda) ko'rinadigan farq bo'lganida; 2) qilmishlardan biri – tugallangan jinoyat, boshqasi unga suiqasd bo'lganida⁵⁵.

V. P. Malkov e'tibor qaratgan vaziyatlarning birinchisi, ya'ni qasdning yo'nalishidagi farqlar mavjud bo'lgan vaziyat qasdli ayb doirasida o'zganing mulki shikastlangan va o'g'irlangan hollarda kuzatiladi. Bu – maxsus adabiyotda o'z yechimini topgan yagona ehtimol tutilgan vaziyat bo'lib, qilmishni amaliyotda huquqiy baholash chog'ida o'z tasdig'ini topadi. Ta'kidlash lozimki, bunday qarorning asosini sobiq SSSR Oliy sudi Plenumining «Davlat yoki jamoat mulkini talon-toraj qilish haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 1972-yil 11 iyul qarorida mavjud bo'lgan tushuntirish tashkil etgan⁵⁶. U mamlakatimiz adabiyotlarida quyidagi tavsiya sifatida qolishda davom etmoqda: «O'zganing mulkini qasddan yo'q qilish yoki shikastlash bilan kechadigan, katta zarar yetkazgan o'zganing mulkini talon-toraj qilish jinoyatlar majmui bo'yicha talon-toraj qilish va mulkni qasddan yo'q qilish yoki shikastlash sifatida Jinoyat kodeksining 173-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim»⁵⁷. Ushbu tavsiyada jinoyatlar majmui o'zga-

⁵⁴ Qarang: Яковлев А. М. Совокупность преступлений по советскому уголовному праву. – М., 1960. – С. 65–66.

⁵⁵ Qarang: Малков В. П. Совокупность преступлений. – Казань, 1974. – С. 161.

⁵⁶ Qarang: Сборник постановлений Пленума Верховного суда СССР (1924–1986). – М., 1987. – С. 610.

⁵⁷ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: Илмий-амалий шарҳ. – Т., 1997. – Б. 223. Shuningdek, qarang: Кабулов Р. Квалификация хищений,

ning mulki (ta'kid bizniki. – *M.B.*) qasddan yo'q qilingan yoki shikastlangan holda mavjud bo'lishiga asosli ravishda e'tibor beriladi va ta'kidlab o'tiladi, ammo ayni vaqtda «o'zganing mulki» tushunchasidan har xil mazmun anglashiladi.

Masalan, R. Kabulovning ta'kidlashicha, «o'zganing mulki deganda, shu paytda o'zining xususiyati va maqsadli vazifasi bo'yicha talon-toraj qilish predmetini tashkil etmaydigan mulk, ya'ni butunlay yo'q qilinadigan yoki shikastlanadigan, ayni vaqtda uning bir qismi o'g'irlanadigan narsa tushunilishi lozim. Bunday vaziyatlarda mulkni yo'q qilish yoki shikastlash uning o'g'irlangan qismlariga nisbatan boshqa mulk hisoblanadi, bu esa ularning turli vazifalarga egaligi bilan bog'liq»⁵⁸. Shunday qilib, talon-toraj qilish vaqtida yo'q qilinadigan yoki shikastlanadigan, R. Kabulovning fikricha, ideal majmua sifatida huquqiy baholashni talab etadigan o'zganing mulkini tushunishning asosiga o'z xossalari va maqsadli vazifalari bo'yicha farq qiladigan mulk qo'yilgan. Ammo bunda muallif «mulkni yo'q qilish yoki shikastlash vosita bo'lib, uning yordamida so'ngra talon-torajlik sodir etiladi», degan fikrga asoslanadi. Biroq, nazarimizda, taklif etilgan mezonlar bo'yicha bunday vaziyatlarni ideal majmua hollariga kiritish xato bo'ladi, zero bunda butun va qismning raqobati aniq ko'zga tashlanadi hamda yo'q qilish yoki shikastlash haqiqatan ham xavfliroq jinoyat – o'zganing mulkini talon-toraj qilishni sodir etish vositasi bo'ladi, bu esa qilmishni jinoyatlar majmui bo'yicha huquqiy baholashni istisno etadi. Bu haqda biz yuqorida yozgan edik.

Nazarimizda, o'zganing mulkini talon-toraj qilish va yo'q qilishni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish haqidagi tavsiya asoslidir. Ammo unda gap ideal majmua haqida emas, balki real jinoyatlar majmui haqida boradi, bunda o'zganing mulki deganda, yaxlitligi talon-toraj qilish natijasida buzilmagan narsa tushunilmog'i lozim. Masalan, mahsulotni ombordan talon-toraj qilish va qolgan mulkni sodir etilgan jinoyat izlarini yashirish maqsadida yondirish orqali yo'q qilish ideal emas, balki real jinoyatlar majmui-

сопряженных с умышленным уничтожением или повреждением имущества // Информационный бюллетень МВД Узбекской ССР. – 1985. – № 4. – С. 26–28.

⁵⁸ *Кабулов Р.* Понятие хищения чужого имущества и его отграничение от смежных преступлений. – Т., 1997. – С. 99.

ning klassik misolidir. Ushbu qoidani ideal majmua hollariga qo‘l-lash esa xato bo‘ladi.

Bizningcha, adabiyotlarda keltirilgan uncha ko‘p bo‘lmagan mi-sollarning o‘zi, masalan distillyatsion elektr isitgichdan kesib olish orqali zanglamaydigan po‘latdan yasalgan uch metrli trubkani (qu-vurni) talon-toraj qilish⁵⁹ yoki 25 metrli mis kabelni aloqa tarmo-g‘idan kesib olib, so‘ngra o‘g‘irlangan narsani rangli metall parchasi sifatida util xom-ashyoga topshirish⁶⁰ yoki ichidagi pulini yoxud ularning ekvivalentlarini o‘g‘irlash maqsadida avtomat-telefonni yo‘q qilish⁶¹, aslida, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidasidan chetga chiqish bo‘lib, bizningcha, ideal majmuani tashkil etmaydi, zero ularda yo subyektiv tomon yo‘q, yo mulkni yo‘q qilish yoki shikastlash og‘irroq jinoyatni sodir etish vositasi bo‘lib xizmat qil-gan, bu esa raqobatni ifodalaydi.

Darhaqiqat, axir, masalan, avtomashina g‘ildiraklari yoki oyna-larini, yoxud garderobdagi paltoning mo‘yna yoqalarini, yoki komp-yuterning klaviaturasini o‘g‘irlash hollari mulkni qasddan shikast-lash sifatida ideal majmua deb baholanmaydi. Bu kabi misollar amaliy faoliyatda juda ko‘p uchraydi, ammo bunday oqibatlar talon-torajlik tarkibiga to‘liq «kiritiladi» va shu bois qasdning yo‘nalish-lari, uning turlari yoxud ehtiyotsizlikning turlari farq qilgan taqdirda ham, ideal majmua mavjudligini qayd etish uchun, V. P. Malkov, S. I. Sirota, R. Kabulov ta’kidlaganlaridek, asoslar mavjud emas, chunki amalda yagona jinoyat mavjuddir. Shunday qilib, agar mulk-ni yo‘q qilish yoki shikastlash uni keyinchalik talon-toraj qilishga yordam bergan vosita bo‘lsa, butun qilmish o‘g‘rilik deb kvalifikat-siya qilinishi lozim, degan qarash⁶² asosliroqdir.

Ta’kidlash muhimki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi ham shu fikrdadir. U o‘zining «Transport vositalarini olib qochish ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqda»gi 37-sonli 1996-yil

⁵⁹ Qarang: *Малков В. П.* Совокупность преступлений. – Казань, 1974. – С. 160; *Бюллетень Верховного суда РСФСР.* – 1972. – № 2. – С. 14.

⁶⁰ Qarang: *Сирота С. И.* Преступления против социалистической собственности и борьба с ними. – Воронеж, 1968. – С. 158.

⁶¹ Qarang: *Кабулов Р.* Понятие хищения чужого имущества и его отграничение от смежных преступлений. – Т., 1997. – С. 99.

⁶² Qarang: *Владимиров В. А.* Квалификация преступления против личной собственности. – М., 1968. – С. 164–165.

20-dekabr qarorining 3-bandida quyidagilarni yetarlicha aniq-ravshan belgilab qo'ygan: «Aybdor transport vositasini o'zining shaxsiy mulkiga aylantirish maqsadini ko'zlagan holda olib qochganda uning harakatlari o'zganing mulkini o'g'irlaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan tavsiflanishi lozim. Bu harakatlarni Jinoyat kodeksining 267-moddasi bilan qo'shimcha tavsiflash talab qilinmaydi, chunki bu holatlarda *transportni olib qochish o'g'irlashning usuli (vositasi) hisoblanadi* (ta'kid bizniki. – M.B.)»⁶³.

Qonun chiqaruvchi organning fikriga ko'ra, ushbu vaziyatda har xil obyektli jinoyatlar mavjud, ammo biz mamlakatimiz adabiyotlarida transport vositalarini olib qochishni mulkka qarshi jinoyatlarga kiritish haqida bildirilgan nuqtai nazar⁶⁴ va boshqa mamlakatlar (Rossiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Tojikiston va boshqalar) ning qonunchilik tajribasi⁶⁵ masalani to'g'riroq hal etgan deb hisoblaymiz, ya'ni transport vositasini olib qochish ham, o'zganing mulkini talon-toraj qilish ham bir turdagi jinoyatlar hisoblanadi, bu esa ularning ideal majmuini istisno etadi (ushbu jinoyatlardan biri – transport vositasini olib qochish – talon-torajlik vositasi bo'lib hisoblanadi).

V. P. Malkov o'z ishida e'tibor qaratgan «qilmishlardan biri tugallangan jinoyat, boshqasi – unga suiqasd hisoblangan» ikkinchi turiga to'xtalganimizda, u noto'g'ri ifodalangan, zero birinchi qilmishni ham, ikkinchi qilmishni ham eslatib o'tish ideal majmua formulasini istisno etadi. Ideal majmua ayni vaqtda bir qancha jinoyat-huquqiy normalarda nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibining

⁶³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 73.

⁶⁴ Qarang: Шайбазян Л. Г. Правовые меры борьбы с угоном транспортных средств (уголовно-правовые и криминологические аспекты): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1997. – С. 7–8, 12–13; Унинг ўзи. Правовые меры борьбы с угоном транспортных средств: уголовно-правовые и криминологические аспекты / Под ред. д.ю.н. А. С. Якубова. – Т., 1997. – С. 9–29.

⁶⁵ Qarang: Уголовный кодекс Российской Федерации. Официальный текст. – М., 1996. – 82–83; Решетников Ф. М. Буржуазное уголовное право – орудие защиты частной собственности. – М., 1982. – С. 50, 80, 92; Уголовный кодекс Республики Таджикистан. Официальный текст. – Душанбе, 1998. – С. 118, 305.

belgilari mavjud bo'ladigan bitta qilmishning sodir etilishini taqozo etadi. Ideal majmuani bunday tushunish V. P. Malkovga ushbu turni mustahkamlash misoli sifatida shaxs xotini va uning o'ynashining hayotiga kuchli ruhiy hayajon holatida bir xil qasd bilan tajovuz qilgan, ammo xotinining o'limi xususida qasd to'liq amalga oshirilgan (tugallangan jinoyat mavjud), o'ynashining o'limi masalasida esa qasd amalga oshmay qolgan (tugallanmagan jinoyat mavjud) holatni keltirishga imkon berdi⁶⁶. Ushbu vaziyatning xuddi shunday yechimini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 13-sonli 2004-yil 24-sentabr qarorining 6-bandida ham uchratamiz⁶⁷.

Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismida bir qancha shaxsni o'ldirganlik uchun bir xildagi javobgarlikni nazarda tutuvchi «a» va «r» kabi ikkita band mavjud. Xo'sh, ularning o'zaro farqi nimada?

Oliy sud Plenumining mazkur tushuntirishlari maxsus tadqiqotlarda tegishli tavsiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Unga ko'ra, Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi «a» bandiga binoan, nafaqat ikki va undan ortiq shaxsni yagona maqsad bilan o'ldirish hollarini⁶⁸, balki «ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish... biri bosh-qasining ortidan bevosita keladigan bir qancha harakatlar bilan... sodir etiladi» degan holatlar ham, hattoki ikki yoki undan ortiq shaxs har xil paytda o'ldirilgan hollar, to'g'ri, jinoiy reja yagona bo'lgan holatlar sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim⁶⁹. Ammo agar qasddan odam o'ldirish vaqtda ozgina farq bilan, ya'ni har xil paytda ketma-ket sodir etilsa, gap Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismi «r» bandida nazarda tutilgan takroriylik haqida borishi lozim. M. M. Qodirov, M. H. Rustambayevning «yagona jinoiy qasd» yoki «yagona jinoiy niyat» haqidagi izohlari ham bunday qasddan odam

⁶⁶ Малков В. П. Совокупность преступлений. – Казань, 1974. – С. 160,161.

⁶⁷ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 193.

⁶⁸ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: Илмий-амалий шарҳ. – Т., 1996. – Б. 134.

⁶⁹ Qarang: Рустамбаев М. Х. Преступления против личности. – Т., 1998. – С. 27; Унинг ўзи. Уголовное право Республики Узбекистан. Особенная часть. – Т., 2002. – С. 29.

o'ldirishning takroriy mohiyatini o'zgartirmaydi, zero jinoyatlarning ushbu toifasida davomli jinoyat formulasini qo'llash (JK 32-m. 3-q.) aslo mumkin emas, chunki bunda jinoiy oqibatning xususiyati – kamida ikki shaxsning o'limidan iboratdir.

Mazkur olimlarning fikrlarida ular qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining ketma-ket sodir etilishini huquqiy baholash haqidagi umumiy qoidadan istisno etishlari uchun zarur asosni ko'rmayapmiz. Buning ustiga, boshqa jinoyatlar (o'g'rilik, talonchilik, poraxo'rlik kabilar) uchun ularning ketma-ket sodir etilishi ularning takrorlanishi o'rtasidagi vaqt oralig'iga bog'liq bo'lgan istisno emas. Shu sababli Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismi «a» bandining mazmunini to'ldirish uchun taklif etilayotgan tavsiyalar noto'g'ridir. Ushbu band xususida faqat ikki yoki undan ortiq shaxslarni bir vaqtda qasddan o'ldirish borasida so'z yuritish mumkin, bu esa odillik prinsipiga (JK 8-m.) mos keladi va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «a» va «r» bandlarini amalda qo'llashni osonlashtiradi.

Shunday qilib, qasddan odam o'ldirish va boshqa shaxsning hayotiga suiqasd qilishning ketma-ket sodir etilishi, tabiiyki, Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi bo'yicha, Oliy sud Plenumi va yuqorida keltirilgan olimlar tavsiya etganlaridek, ko'rib chiqilishi mumkin emas. Ushbu holda takroriylik mavjud bo'lib, bu «Jinoyat kodeksi 25-moddasi, 97-moddasining ikkinchi qismi «a» bandi hamda 97-moddaning tegishli qismi bo'yicha»⁷⁰ kvalifikatsiya qilishni istisno etadi.

Avvalgi paragrafda biz takroriy jinoyatlardan biri tugallanmaganida jinoyatlar majmui qoidasi bo'yicha kvalifikatsiya qilishning noqonuniyligini asoslab bergan edik. Shu bois Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi yoki birinchi qismlari, 25-moddasi hamda 97-moddasi ikkinchi qismining «r» bandi bo'yicha boshqacha huquqiy baholash ham mumkin emas. U Jinoyat kodeksi 25-moddasining ikkinchi qismi va 97-moddasi ikkinchi qismining «r» bandi bo'yicha ilgari qasddan odam o'ldirgan shaxsning takroran odam o'ldirishga suiqasd qilishi sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ayni vaqtning o'zida ikki odamni o'ldirish sodir etilgan va

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 193.

bunda ulardan biri aybdorga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra o‘lmay qolgan, ya’ni tugallangan suiqasd bosqichida bo‘lgan holda ham masala shu tariqa hal qilinishi lozim⁷¹, bu esa shaxsning faqat Jinoyat kodeksi 25-moddasining ikkinchi qismi hamda 97-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi bo‘yicha javobgarligini istisno etmaydi.

V. P. Malkov keltirgan misol yuqorida tahlil qilingan vaziyatlardan biroz farq qiladi, chunki unda kuchli ruhiy hayajon holatida odam o‘ldirishga suiqasd qilish (JK 97-m.) haqida so‘z boradi va sodir etilgan jinoyatlarning ketma-ketligi ko‘rsatilmaydi. Shu sababli kamida ikkita variantni taxmin qilish mumkin: 1) Jinoyat kodeksining 98-moddasida nazarda tutilgan qasddan odam o‘ldirish va xuddi shunday jinoyatni sodir etishga suiqasd qilishni ketma-ket sodir etish; 2) bir vaqtning o‘zida ikki shaxsni qasddan o‘ldirishni istash, bunda ulardan birining o‘limi aybdorga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra yuz bermagan (tugallangan suiqasd).

Birinchi holda gap takroriylik, ikkinchisida esa yagona jinoyat haqida boradi. Biroq ushbu huquqiy farq ularning huquqiy baholanishida aks etmaydi, ular bir xil formulaga ega bo‘ladi: Jinoyat kodeksi 25-moddasining ikkinchi qismi va 98-moddasi yuqorida keltirilgan holatlarning bunday kvalifikatsiyasi shaxsning huquqiy holatiga jiddiy ta’sir etmaydi, chunki Jinoyat kodeksining 98-moddasida jinoyatlarning kvalifikatsiya qilingan (og‘ir) tarkiblari nazarda tutilmagan. Bundan tashqari, bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 13-sonli 2004-yil 24-sentabr qarorining 24-bandida berilgan yetarlicha muhim tushuntirishga asoslanish lozim. Unda aytilishicha, Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «a», «b», «v», «d», «j», «r» va «s» bandlarida nazarda tutilgan holatlarda kuchli ruhiy hayajon holatida sodir etilgan qasddan odam o‘ldirish og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish sifatida kvalifikatsiya qilinmasligi lozim.

Shunday qilib, bir obyektli ideal majmua ayb shakli har xil bo‘lgan holdagina mavjud bo‘lishi mumkin va shu jihatdan A. M. Yakovlev ifodalagan qarashni qo‘llab-quvvatlaymiz.

⁷¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: Илмий-амалий шарҳ. – Т., 1997. – Б. 44.

Har xil obyektli ideal majmua aybdorning harakati bilan aybning bir xil yoxud har xil shaklida ikki yoki undan ortiq obyektga zarar yetkazilgan taqdirda mavjud bo'ladi.

Ko'plab darsliklar va maxsus tadqiqotlarda keltiriladigan har xil obyektli ideal majmuaning eng ko'p tarqalgan misollaridan biri ichida jabrlanuvchi bo'lgan uyni yoqib yuborish orqali qasddan odam o'ldirish bo'lib, uni qasddan odam o'ldirish (JK 97–98-moddalari) va mulkni qasddan yo'q qilish sifatida kvalifikatsiya qilish (173-m. 2-q. «b» b.) tavsiya etiladi. Jinoyat kodeksining 173-moddasida yoqib yuborish orqali o'zganing mulkini qasddan yo'q qilish yoki nobud qilish nafaqat jabrlanuvchiga katta ziyon yetkazuvchi jinoyat deb, balki jamoat uchun xavfli usullardan biri sifatida baholangan. Ammo boshqa insonni hayotdan g'ayriqonuniy tarzda har qanday mahrum qilish amalda moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham behisob ziyon yetkazadi. Albatta, ziyon jabrlanuvchiga emas, balki uning qarindoshlari va yaqinlariga yetkaziladi. Bilvosita ziyon jabrlanuvchining do'stlari, xizmatdoshlari, u mehnat qilib turgan jamoaga, jamiyatga yetkazilishi mumkin. Lekin bu omillarni sud jazoni og'irlashtiruvchi holatlar doirasida, Jinoyat kodeksi 56-moddasi birinchi qismining «z» bandida nazarda tutilgan og'ir oqibatlar kelib chiqishiga olib kelgan jinoyat sifatida inobatga olishi mumkin.

O't qo'yish shu bois ham jamoat uchun xavfli usul hisoblanadiki, u ko'plab odamlar yoki jinoyat bevosita qaratilgan obyektlardan boshqa obyektlarga ziyon yetkazish bo'yicha ham katta xavf tug'diradi. Maxsus adabiyotlarda ta'kidlanishicha, «bir shaxsga yoki muayyan mulkka qaratilgani holda boshqa shaxslar yoki boshqa mulkka ziyon yetkazish borasida aniq xavf tug'diruvchi jinoyatni sodir etish usulini jamoat uchun xavfli usul deb hisoblash lozim. Bunga misol qilib suvidan jabrlanuvchidan boshqa shaxslar ham foydalanadigan quduqning zaharlanishi, odamlar to'planadigan joylarda o't qo'yish, portlatish, suv bostirish, o'q otish kabilar kiradi. Ushbu holat aybdor jinoyat sodir etish yoki sodir etilgan jinoyatning izlarini yashirish uchun barchaga xavfli usuldan foydalanayotganligini anglagani aniqlangan holda mavjud bo'ladi»⁷².

⁷² Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳ. – Т., 1997. – Б. 137; Shuningdek, qarang: *Кадыров А. А.* Обстоятельства,отягчающие наказание: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1997. – С. 15.

Ko'pchilik uchun xavfli usulni bunday doktrinal tushunishdan kelib chiqib, biz u Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «d» bandida nazarda tutilgan qasddan odam o'ldirish jinoyati murakkab tarkibining konstruktiv belgisi sifatida namoyon bo'ladi deb hisoblaymiz. Bu moddada, insonni hayotdan mahrum qilishdan tashqari, boshqa jinoiy oqibatlar ham qamrab olingan. Aslida, ushbu tarkib inobatga olingan har xil turli ideal majmua hisoblanadi, bu esa qilmishni bir qancha jinoiy-huquqiy normalar bo'yicha huquqiy baholashni istisno etadi.

Nazarimizda, mazkur holatda qilmishni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «d» bandi bo'yicha boshqa shaxslar hayoti uchun xavfli usulda qasddan sodir etilgan odam o'ldirish sifatida kvalifikatsiya qilish hamda jazo tayinlash chog'ida Jinoyat kodeksining 56-moddasi birinchi qismi «z» bandida belgilangan va o'zganing mulkini yo'q qilish tarzidagi oqibatni inobatga oladigan qoidani qo'llash adolat prinsipi nuqtai nazaridan (JK 8-m. 2-q.) yetarli va asoslangan bo'lib, aybdor sodir etgan barcha qilmishlarni to'liq qamrab oladi. Shubhasiz, sud hukmida Jinoyat-protsessual kodeksning jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararni qoplash tartibini belgilovchi beshinchi bo'limi qoidalariga muvofiq yetkazilgan zararni qoplash haqidagi masala ham hal etilishi darkor.

Shu bilan birga, qilmishda Jinoyat kodeksining 98-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikni yengillashtiruvchi belgilar (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish) aniqlansa, qilmishda, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi tarkiblar raqobati mavjud bo'ladi, bu holda u faqat yengillashtiruvchi tarkib bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan qilmishni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «d» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilishga doir O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 13-sonli 2004-yil 24-sentabr qarorining 10-bandida⁷³ hamda olimlarning shunga o'xshash tavsiyalarida⁷⁴ keltirilgan kvali-

⁷³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 192–201.

⁷⁴ Qarang: *Кадыров М. М.* Уголовное право Республики Узбекистан. Особенная часть. – Т., 1997. – С. 25; *Рустамбаев М. Х.* Преступления против

fikatsiya qilish xususidagi takliflarga e'tibor qaratish lozim. Mazkur olimlar boshqa shaxslarning badaniga shikast yetkazilgan taqdirda aybdorning harakatlarini «d» bandi bilan bir qatorda, Jinoyat kodeksining qasddan badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi boshqa moddalari bo'yicha ham kvalifikatsiya qilish haqida tavsiya berganlar. Buning ustiga, M. H. Rustambayev Oliy sud Plenumining ushbu tavsiyasini rivojlantirib, boshqa odamlar o'limi yuz bergan bo'lsa, qilmishni ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bo'yicha jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilish zarur deb hisoblaydi⁷⁵.

Keltirilgan tavsiyalarga qo'shilish qiyin, zero ular jinoyatlar tarkiblarining konstruktiv xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlarga zid keladi. Biz tahlil qilayotgan qonunchilik konstruksiyasi bu haqda qonunda ko'rsatilmagan holda murakkab tarkibli jinoyat nazarda tutilgan klassik misol hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi organ ko'plab odamlarning hayoti uchun xavf tug'ilishi mumkinligini nazarda tutib bo'lgan, bir qancha shaxslarning o'limi xuddi shu moddaning «a» bandida nazarda tutilgan ekan, binobarin, «d» bandi qolgan barcha ehtimol tutilgan oqibatlarni, hatto jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan badanga og'ir shikast yetkazishgacha bo'lgan oqibatlarni ham qamrab oladi.

Biz tahlil qilayotgan qarashning xatoligi O'zbekistonning amaldagi Jinoyat kodeksida keltirilgan bir qator o'ziga xos ko'rsatmalar va ularning tizimliliigi yetarlicha inobatga olinmagani bilan bog'liq bo'lib, bular ilgari amal qilgan jinoyat qonunchiligida mavjud bo'lmagan. Jinoyat kodeksi 23-moddasining qasddan sodir etilgan jinoyat sodir etish natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bersa, jinoyatlar majmui bo'yicha mustaqil baholash mumkinligini istisno etuvchi qoidalarini aytib o'tish yetarlidir, chunki bunday jinoyatlar, umuman olganda, qasddan sodir etilgan jinoyatlar deb topilishi lozim⁷⁶. Yuqorida keltirilgan tavsiya esa ushbu qonunchilik ko'rsatmasiga asoslanishi kerak, chunki

личности. – Т., 1998. – С. 33; Унинг ўзи. Уголовное право Республики Узбекистан. Особенная часть. – Т., 2002. – С. 34.

⁷⁵ *Рустамбаев М. Ё.* Ko'rsatilgan asarlar.

⁷⁶ Bu haqda batafsil ma'lumot uchun qarang: *Якубов А. С.* Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлениях: предпосылки, реальность, перспективы. – Т., 1996. – С. 120–121.

qonun bunday qilmishlarning murakkab jinoyatlardan boshqa narsa emasligini bilvosita tasdiqlaydi. Boshqa bir jihat ham qiziqarlidir: biz ilgari taklif etgan qaror, biroq biroz boshqacharoq tarzda, ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topib bo'lgan⁷⁷.

Nazariy jihatdan, qonun yaratish jarayonining muhimligini, jinoyat-huquqiy normalarni ishlab chiqish va tuzishda o'ylab, sinchkovlik bilan va professional jihatdan yondashish zarurligini aks ettirish nuqtai nazaridan, yana bir muammoga e'tibor qaratamiz. Qonunni qabul qilish paytida yo'l qo'yilgan kamchilik yoxud huquqni qo'llash amaliyotidagi nuqson qilmishni ideal majmua qoidalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish orqali to'ldiriladi. Masalan, bezorilik va badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazishning ideal majmui faqat Jinoyat kodeksi 277-moddasining ikkinchi qismi «a» bandi bo'yicha, bezorilik va qasddan odam o'ldirishniki esa – faqat Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismi «l» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilishni talab etadi.

O'zbekistonning 1959-yilgi Jinoyat kodeksi amal qilgan davrda ham bunday qilmishlar shu tariqa kvalifikatsiya qilingan va bu hol qonun chiqaruvchi organ inobatga olgan ideal majmua sifatida baholangan. Shu bilan birga, 1959-yilgi Jinoyat kodeksida bezorilik badanga og'ir shikast yetkazilishiga olib kelgan hollarda ham kamchilik bo'lgan huquqni qo'llash amaliyoti qilmishni ikki norma bo'yicha, ya'ni ham bezorilik, ham badanga og'ir shikast yetkazish sifatida kvalifikatsiya qilgan. O'zbekistonning 1994-yilda ishlab chiqilgan va qabul qilingan amaldagi Jinoyat kodeksida ushbu kamchilik bartaraf etilgan. Buning ustiga, qonun chiqaruvchida ushbu muammoni hal qilishning jinoyat qonunining ikki moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish zaruratini istisno etishga imkon beruvchi ikki muqobil varianti mavjud bo'lgan.

Birinchisi – Jinoyat kodeksining 277-moddasiga (bezorilik) alohida kvalifikatsiyalangan belgi sifatida bezorilik chog'ida badanga og'ir shikast yetkazishni kiritish. Lekin bu qo'shimcha muammoni hal qilmaydi, chunki Jinoyat kodeksi 277-moddasining uchinchi qismi sanksiyasi Jinoyat kodeksi 104-moddasining sanksiyasiga qaraganda yengilroq. Qonun chiqaruvchi organ asosli ravishda tanlagan

⁷⁷ Qarang: Куринов Б. А. Научные основы квалификации преступлений. – М., 1984. – С. 179.

ikkinchi usul – Jinoyat kodeksi 104-moddasining ikkinchi qismiga kvalifikatsiya qilingan (aybni og‘irlashtiruvchi) belgi sifatida «ye» bandidagi badanga qasddan bezorilik maqsadlarida og‘ir shikast yetkazishni kiritish bo‘lib, bu hol Oliy sud Plenumiga qonun chiqaruvchi organ tomonidan inobatga olingan ideal majmuani faqat Jinoyat kodeksi 104-moddasi ikkinchi qismining «ye» bandi bo‘yicha, ya’ni Jinoyat kodeksi 277-moddasini qo‘llamagan holda kvalifikatsiya qilish zarurligini tushuntirishiga asos bo‘ldi⁷⁸.

Maxsus adabiyotlarda ko‘p yillar davomida A. B. Saxarovning ilmiy ishlaridan⁷⁹ boshlab ko‘p munozaralarga sabab bo‘layotgan muammolardan biri mansabdor shaxslarning umumiy jinoyatlarni sodir etish hollarini ideal majmua qoidalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilishdir. Uni qo‘shimcha ravishda tegishli mansabdorlik jinoyati sifatida ham baholash tavsiya etilmoqda. Nazarimizda, bunday qarash xatodir, chunki mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, ya’ni mansab jinoyatlari ularni boshqa toifadagi jinoyatlardan farqli ravishda mustaqil guruhga ajratish imkonini beruvchi kamida uchta belgiga ega. Bu belgilar quyidagilardan iborat:

- 1) maxsus subyekt – mansabdor shaxsning mavjudligi;
- 2) xizmat manfaatlariga xilof tarzda mansab vakolatlaridan foydalanish yoxud xizmat vazifalarini buzish;
- 3) zarar yetkazish hamda hokimiyat, boshqaruv organlari va jamoat birlashmalarining faoliyatini izdan chiqarish.

Shu munosabat bilan umumiy jinoyatlarning sodir etilishi, hatto bunda xizmat mavqeidan foydalanilsa ham, hali mansab jinoyatini qayd etish uchun yetarli asos bo‘lmaydi, zero bunday asos faqat yuqorida keltirilgan uchala belgi majmui bo‘lganidagina hosil bo‘-

⁷⁸ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли 2002 йил 14 июнь қарорининг 12-банди // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2006. – Б. 114.

⁷⁹ Qarang: Сахаров А. Б. Ответственность за должностные злоупотребления по советскому уголовному праву. – М., 1956. – С. 189–197; Ушбу муаммо бўйича адабиётлар рўйхати билан батафсил танишиш учун Qarang: Советское уголовное право: Библиографический справочник (1961–1980). – М., 1983. – С. 234–241, 377–379; Советское уголовное право: Библиографический справочник (1981–1985 гг.) / Сост. А. С. Горелин. – Красноярск, 1987. – С. 134–136.

ladi. Mansabdor shaxs umumiy jinoyatlarni sodir etishi bilan «... jamiyat va davlat hayotining muayyan sohasida belgilangan faoliyat tartibi»ni⁸⁰ izdan chiqaradi, ya'ni bu munosabatlar boshqaruv munosabatlari bo'lmay qoladi. Gap faqat shaxs o'z xizmat vazifalarini bajaradigan o'sha idora yoki tashkilotning obro'siga yetkazadigan ma'naviy zarar haqidagina borishi mumkin, biroq bu qandaydir xususiyatni belgilab bermaydi, chunki bunday holni har qanday subyekt va idoraga taalluqli deb hisoblash mumkin.

Umumiy jinoyatning sodir etilishi faqat mansabdor shaxs o'z vakolatlaridan xizmat manfaatlariga xilof tarzda foydalangani, ya'ni xizmat mavqeini suiiste'mol qilgani uchungina yuz berishi mumkin, degan boshqa nuqtai nazar ham to'g'ri emas⁸¹. Ikkita belgini harakatning boshqaruv munosabatlarini izdan chiqarishga yo'nalganligini ifodalovchi uchinchi belgi bilan solishtirmasdan hisobga olish subyektivizm va qonuniylikni buzishning ko'rinishidir. Bu esa liberallashtirish tamoyiliga zid bo'lib, uni jinoyiy ta'qibni kuchaytirish siyosati bilan almashtirishdir.

Nazarimizda, mansabdor shaxs umumiy jinoyat sodir etganida, jumladan xizmat mavqeidan foydalanganida, qilmishni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ushbu jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bo'yichagina kvalifikatsiya qilish lozim. Ushbu belgilar Jinoyat kodeksining boshqa moddasi yoki moddaning boshqa qismlarida og'irlashtiruvchi yoki alohida og'irlashtiruvchi belgi sifatida nazarda tutilgan hollarda kvalifikatsiyani o'zgartirish mumkin. Aybdorning harakatlarini mansab jinoyati uchun ham kvalifikatsiya qilish faqat real jinoyatlar majmui bo'lgan hollardagina mumkin bo'ladi.

Mazkur guruh doirasida shaxsda tajovuz qilish niyati bo'lmagan obyektga xatoga yo'l qo'yib, amalda tajovuz qilinganida yuzaga keladigan haqiqiy xatolar bo'lgan hollarni tahlil qilish lozim. Bunday vaziyatlar, birinchidan, obyektga nisbatan xato yoki, ikkinchidan, harakatdan og'ish natijasida sababiy bog'lanish rivojlanishida yo'l qo'yilgan xato tufayli yuzaga keladi.

⁸⁰ Закирова А. Г. Уголовно-правовая охрана личности и прав сотрудников правоохранительных органов: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1997. – С. 14.

⁸¹ Qarang: Панов Н. И. Квалификация преступлений, совершенных путем обмана и злоупотребления доверием. – Киев, 1998. – С. 76.

Birinchi turi shaxs o'zi haqiqiy deb qabul qilayotgan va aybdor-da tajovuz qilish rejasi bo'lgan boshqa obyektga nisbatan harakat sodir etganida mavjud bo'ladi. Ushbu vaziyatni amalda tahlil qilish go'yoki biz birinchi obyektga nisbatan jinoyatga tayyorgarlik va ikkinchi obyektga nisbatan amalda tugallangan qasddan sodir etilgan jinoyatga ega bo'lamiz, deyishga imkon beradi. Demak qilmishni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish talab etiladi.

Ikkinchi turi bir obyekt boshqa kuchlar ta'sirida boshqasiga almashtirilgan hollarda mavjud bo'ladi. Bu esa qilmishni birinchi obyekt qo'riqlanayotgan jinoyatga suiqasd sifatida va boshqasiga nisbatan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan tugallangan jinoyat sifatida, ya'ni xuddi birinchi holdagi singari, jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilishni talab etadi.

O'ylaymizki, tahlil qilinayotgan hollarni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish xatodir. Biz sodir etilgani uchun javobgarlik bir xilda, ya'ni aybdor qasdining yo'nalishi va qilmishining tugallaganlik darajasidan kelib chiqib belgilanishi lozim bo'lgan yagona jinoyatlar bilan ish ko'ramiz. Shu bois biz xatolar sodir etilganida «... qilmish aybdorning qasdi qaratilgan jinoyatga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi»⁸², degan nuqtai nazarga qo'shilamiz. Bu esa ba'zi xato hollarni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish xususidagi boshqa tavsiyalarning asoslanganligini istisno etadi⁸³.

Qilmishni ideal majmua qoidalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish zarurligi haqidagi masala **sodir etilgan jinoyat ayni vaqtning o'zida boshqa jinoyatni sodir etishga tayyorgarlikni tashkil qilgan** holda ham yuzaga keladi. Bunday kvalifikatsiyanining misolini Oliy sud Plenumining «Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 3-sonli 1996-yil 27-fevral qarorining 10-bandida keltirilgan tushuntirishda ham topamiz. Unda aytilishicha, «o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari qonunga xilof ravishda boshqa jinoyatni sodir etish maqsadida egallangan, shuningdek, tayyorlan-

⁸² Гаухман Л. Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. — М., 2001. — С. 170.

⁸³ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳ. — Т., 1997. — Б. 57. Shuningdek, qarang: Якушин В. А. Ошибка и ее уголовно-правовое значение. — Казань, 1988. — С. 128; va boshq.

gan, olingan, olib yurilgan, saqlangan hollarda sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat (JKning 247 yoki 248-moddasi) va boshqa jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik tariqasida kvalifikatsiya qilinishi shart»⁸⁴.

Yuqorida keltirilgan hollarga nisbatan boshqa davlatlar qonunlarida mavjud bo'lgan bunday vaziyatlarni hal qilish tajribasidan foydalanish mumkin. Masalan, AQSH Namunaviy jinoyat kodeksining 107-moddasi birinchi qismida mavjud qoidaga ko'ra, agar bir tajovuz boshqa tajovuzni sodir etish uchun til biriktirish yoki tayyorgarlikning qandaydir boshqa shaklidangina iborat bo'lsa, sudlanuvchi bitta jinoyatdan ortig'i uchun hukm etilishi mumkin emas⁸⁵. Bunday qarorning qonunchilik darajasida qabul qilinishi insonparvarlik va odillik prinsiplariga ko'proq, O'zbekistonda jinoiy siyosatni liberallashtirishga qaratilgan siyosatga esa to'liq javob bergan bo'lardi.

Ishimiz yakunida ta'kidlaymizki, qilmishda ideal majmua bor-yo'qligi butunlay jinoyat qonunida u yoki bu yagona jinoyat qanday belgilanishiga, ushbu jinoyat tarkibiga qaysi belgilar kiritilishiga bog'liqdir. Qo'shimcha tarzda hattoki bitta qandaydir belgining kiritilishi yoxud jinoyatning aniq tarkibidan uning olib tashlanishi ba'zan tegishli qilmishda ideal majmuaning bor-yo'qligi xususidagi vaziyatni butunlay o'zgartirib yuboradi. Qonunchilik jarayonida Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasini ifodalashda u yoki bu turdagi jinoiy tajovuzning tipik va barqaror belgilari qanchalik to'g'ri inobatga olinsa, huquqni qo'llash amaliyotida sodir etilgan qilmishni ideal majmua qoidalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish ehtiyoji shuncha kam bo'ladi.

Shu qoidaning o'zi, nazarimizda, quyidagicha ifodalanishi lozim: *belgilari jinoyat qonunining turli moddalaridagina to'liq qamrab olinadigan jinoyat ushbu moddalarning hammasi bilan kvalifikatsiya qilinadi, oxirgi jazo esa bunday vaziyatlarda yengilroq jazoni og'irroq jazo qamrab olishi yo'li bilan tayinlanadi. Bu sodir etilgan jinoyatlarning eng og'iri uchun nazarda tutilgan eng ko'p muddat yoki jazo miqdoridan ortmasligi kerak.*

⁸⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. 1-жилд. – Т., 2006. – Б. 48.

⁸⁵ Qarang: Примерный уголовный кодекс (США). – М., 1969. – С. 38.

XULOSA

Mavzuni tahlil qilishga yakun yasar ekanmiz, quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin.

1. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish davlatning huquqni muhofaza qilish organlari jinoyat qonunini qo'llash jarayonida hal qiladigan markaziy masalalardan biridir. Ushbu qoida jinoyatlar majmuiga ham to'lig'icha taalluqlidir, zero u og'irroq huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini belgilab beradi.

2. Jinoyatlar majmuiga kiruvchi qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish ichki ishlar organlari faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatib, uning statistik hisoblarida o'z aksini topadi. O'zbekiston Respublikasi IIVning «Jinoyatlarni hisobga olishning yagona tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi umuman olganda jinoyatlar majmui haqidagi umumnazariy qoidalarga va amaldagi jinoyat qonunlarining ko'rsatmalariga muvofiq keladi. Ayni vaqtda, Yo'riqnomaning ijobiy jihatlarini ta'kidlash bilan birga, uning mualliflari, afsuski, mustaqillikkacha bo'lgan davrda amal qilgan jinoyatlarni hisobga olish haqidagi shunga o'xshash hujjatga xos bo'lgan xatolarni takrorlaganliklarini ta'kidlash lozim.

3. O'xshash jinoyatlarning takroriyligi, o'zining kvalifikatsion ifodasiga ko'ra, jinoyatlarning real majmuini eslatadi. Ammo bundan ortiq emas. Bir qancha jinoyat sodir etish shakli sifatidagi takroriylikka hukm etilgunicha ikki yoki undan ortiq o'xshash jinoyatni sodir etgani uchun shaxs jinoiy javobgarlikka hamda Jinoyat kodeksining ikkala jinoyatni bir vaqtda ko'ruvchi moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlik va jazoga tortiladi, degan faktgina aloqador bo'lib, oddiy va og'irlashtiruvchi (takroriylik belgisi bo'yicha) tarkiblarda nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bunga kirmaydi. Ikkinchi jinoyatning takroriylik belgisi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi bir qancha jinoyatlar sodir etishning boshqa shakllariga, ya'ni real majmuaga (agar birinchisi bir turdagi jinoyat yoki retsdiv bo'lsa), yoxud retsdivga (shaxs avvalgi jinoyati uchun hukm qilinganidan so'ng asosiy tarkibda nazarda tutilgan jinoyatni yana sodir etsa) kiradi.

Shunday qilib, real majmuani aynan o'xshash jinoyatlarning takroriyligi bilan qo'shib bo'lmaydi. Jinoyat ushbu holda Jinoyat kodeksi moddasining qilmishning takroriyligini nazarda tutuvchi

qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Jinoiy faoliyat epizodlaridan biriga Jinoyat kodeksining 25 va 27-moddalarini, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llash sudning huquqi yoki majburiyatidir.

4. Qonunda belgilangan takroriylik va retsidivning bir turdagi va har xil jinoyatlar orqali hosil qilish mumkinligi haqidagi ko'rsatma insonparvarlik (JK 7-m.) va odillik (JK 8-m.) prinsiplarining qoidalariga ziddir. Bunday nomuvofiqlikni tugatish uchun qonun darajasida takroriylik va xavfli retsidivni faqat aynan o'xshash jinoyatlarning xar xil vaqtda sodir etilishi hollari bilangina qayd etish mumkinligi bilan cheklash taklif etiladi. Bunda ishda keltirilgan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining ro'yxatidan asosini «ilgari jinoyat sodir etgan shaxs...» iborasini tashkil etuvchi kvalifikatsiyalovchi belgini chiqarib tashlash orqali cheklash taklif etiladi.

5. Qilmishda ideal majmua bor-yo'qligi butunlay jinoyat qonunida u yoki bu yagona jinoyat qanday belgilanishiga, ushbu jinoyat tarkibiga qaysi belgilar kiritilishiga bog'liqdir. Qo'shimcha tarzda hattoki bitta qandaydir belgining kiritilishi yoxud jinoyatning aniq tarkibidan uning olib tashlanishi ba'zan tegishli qilmishda ideal majmuaning bor-yo'qligi xususidagi vaziyatni butunlay o'zgartirib yuboradi.

Sodir etilgan qilmishni ideal majmua qoidalarini bo'yicha kvalifikatsiya qilish quyidagicha ifodalanishi lozim: belgilari jinoyat qonunining turli moddalaridagina to'liq qamrab olinadigan jinoyat ushbu moddalarning hammasi bilan kvalifikatsiya qilinadi, oxirgi jazo esa bunday vaziyatlarda yengilroq jazoni og'irroq jazo qamrab olishi yo'li bilan tayinlanadi. Bu sodir etilgan jinoyatlarning eng og'iri uchun nazarda tutilgan eng ko'p muddat yoki jazo miqdoridan ortmasligi kerak.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
REAL JINOYATLAR MAJMUI SHAROITIDA JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH.....	4
IDEAL MAJMUA SHAROITIDA JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH	40
XULOSA.....	57

Matlyubov Badriddin Bahodirovich,
yuridik fanlar nomzodi

**JINOYATLAR MAJMUI:
KVALIFIKATSIYA QILISH**

O'quv qo'llanma

Muharrir **S. A. Razzoqov**
Texnik muharrir **D. H. Hamidullayev**

Bosishga ruxsat etildi 4.04.2009. Shartli b.t. 3,75. Nashr t 3,2
Tiraj 1000. Buyurtma № Narxi shartnoma asosida
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
700197, Toshkent sh, Intizor ko'chasi, 68

«Akademiya noshirlik markazi»
davlat unitar korxonasida chop etildi,
700197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68